


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI



**"JAHON ARXIVLARI TARIXI VA TAJRIBASI"  
MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent - 2022

**Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:**

**t.f.n., dots. Buriyeva X.A.  
PhD, dots.Choriyev SH.SH.**

**Taqrizchi:**

**t.f.n., dots.Buriyeva X.A.**

**O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik  
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	14
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR .....	52
V. KEYSLAR BANKI.....	57
VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	59
VII. GLOSSARIY .....	60
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	64

## I. ISHCHI DASTUR

Hozirgi zamон globallashuv jarayonida O'zbekiston Respublikasining jahон hamjamiyatida o'z o'rni va mavqeyi toboro mustahkamalnib bormoqda. Bunda davlat tomonidan joriy qilinayotgan dasturlarning alohida ahamiyati bor. Jumladan, ta'lif tizimining rivojlanishi borasida amalga oshirilayotgan izchil va tadrijiy jarayonlar o'z samarasini berib bormoqda. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash siyosati jahон standartlariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirishni maqsad qilgan holda joriy etilmoqda. Ta'lif sohalarining barcha yo'naliшlar, shu qatorda gumanitar fanlar ham zamонaviy talablar asosida yangi dasturlar asosida tashkillashtirilmoqda. Bular qatorida tarix fani va undagi muhim yo'naliшlaridan biri sanalgan arxivshunoslik sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarixni yaratish va o'rganishga bo'lgan talabalar, shu jumladan, uni birlamchi manbalar – moddiy ashyolar, yozma meros va arxiv hujjatlariga tayanib masalasiga bilan bog'liq qator huquqiy-meyoriy hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Arxiv ishi yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 2004 yil 3 fevral Qarorlarida O'zbekistonda arxiv ishini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida arxiv ishi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish vazifalari belgilangan. Shu qatorda 2011 yilda "Arxiv ishi to'g'risida" qonunining qabul qilinishi arxiv ishishini rivojlantirishga va jahон yetakchi arxivlar tajribasini o'rganishda Arxivlarning umumiy tarixi va jahoning yetakchi arxivlari tarixini o'rganish masalalari mazkur muammoni nazariy jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda tarixiy fanlarni o'rganish nafaqat sohaga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish, balki yosh avlodda ma'naviy barkamollik xislatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix fanining dolzarb yo'naliшlaridan biri hisoblangan arxivlar va arxiv ishi tarixi o'tmishtga doir haqiqatni haqqoni yoritishga yordam beradi va bunga ko'plab dalillar taqdim etadi. Ayniqsa ko'plab ma'lumotlar hozirgi zamonda mavjud dunyo arxivlarida saqanib kelinadi. Jahonda arxivlarning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, turli tarixiy davrlarda dunyoning har xil mintaqalarida arxiv ishining shakllanib borishi, hozirgi zamон arxivlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, xalqaro arxivshunoslik tajribalarining almashinushi bilan bog'liq bilimlarni tarixchi mutaxassilarda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi, ularning tarix va arxiv ishi tarixi sohasidagi dunyoqarashini kengaytiradi, arxivlarda ishslash, hujjatlarni tahlil etish, ma'lumotlar asosida tarixiy jarayonlarni to'g'ri talqin etish va yoritib berish, hosil bo'lgan bilimlarni amaliyotda keng qo'llash imkonini beradi. Jahon arxivlari tarixi va tajribasi kursi davomida olingan bilim va hosil etilgan ko'nikmalardan mutaxassislar ish yurituvchi, arxishunos, manbashunos, tarixchi, tarixchi-pedagog, arxivshunos-pedagog sohalarida keng foydalanishlari mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Jahon arxivlari tarixi va tajribasi” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilariga jahon arxivlarining turli davrlardagi tarixi va jahonda zamonaviy arxivshunoslik tajribasi bilan bog‘liq nazariy bilimlarni berish hamda ushbu bilimlardan amaliyotda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- qadimgi dunyo arxivlari va arxiv muassasalari haqida ma’lumot berish;
- o‘rta asrlar va yangi davrda dunyoning turli hududlarida arxivlar hamda arxiv ishining o‘ziga xos xususiyatlariga doir ma’lumotlar bilan tanishtirish;
- jahonda hozirgi davrda faoliyat yuritayotgan yetakchi arxivlarning faoliyati va tajribasiga oid bilimlarni shakllantirish;
- turli davrlarda va hududlarda mavjud arxiv muassasalari va ulardagi arxiv ishining tashkiliy jihatlarini taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantirish.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Jahon arxivlari tarixi va tajribasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Arxivshunoslik o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyasi”, “Arxiv ishida informatsion texnologiyalar”, “Arxiv huquqi”, “Arxiv ishi menejmenti” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning arxivshunoslik bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliv ta’limdagi o‘rni**

Mustaqillik yillarda arxiv sohasi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining arxivshunos kadrlari jahon arxivlari tarixiga oid bilimlarni puxta egallashi lozim. Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar jahonda arxivlarning paydo bo‘lishi hamda rivojlanishi, hozirgi kundagi holati va faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil etish, bilimlarni amalda qo’llash va arxiv ishi holatini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			Mustaqil ta’lim Ko‘chma mecha‘nlat	
			Jami	Nazariy	jumladan		
1.	Qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda arxivlari tarixi	4	4	2	2	-	-
2.	Yevropada so‘nggi o‘rta asrlar va yangi davrda arxiv ishi tarixi	4	4	2	2	-	-
3.	Rossiyada arxiv ishining rivojlanishi	4	4	2	2	-	-
4.	AQShda arxivlarning taraqqiy etishi	4	4	2	2	-	-
5.	Hozirgi zamон jahon arxivlari tajribasi	12	8	2	2	-	4
Jami:		24	<b>24</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	-	4

### NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

#### **1-mavzu. Jahonda arxivlarning paydo bo‘lishi va arxiv ishining rivojlanishi (qadimgi dunyo, o‘rta asrlar davrlari). Qadimgi Sharqda arxiv va arxiv-kutubxonalarning paydo bo‘lishi**

Qadimgi Sharqda arxiv va arxiv-kutubxonalarning paydo bo‘lishi. Qadimgi Yunoniston, Rimda arxivlar faoliyati. O‘rta asrlarda arxiv ishining rivojlanishi. Arxivlarning turlari va hududiy xususiyatlari. Arxiv ishining tashkil etilishi va takomillashuvi. Arxiv hujjatlarining tarkibiy tuzilishi.

#### **2-mavzu. Sharqiy Yevropa davlatlarida o‘rta asrlar va yangi davrda arxiv ishining tashkillashtirilishi**

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida so‘nggi o‘rta asrlarda arxivlar tasnifi, tarkibi, arxiv ishining yuritilishi. Yangi davrda arxiv islohotlari. Sharqiy Yevropa davlatlarida so‘nggi o‘rta asrlarda arxiv ishining tashkillashtirilishi. Yangi davrda Sharqiy Yevropa arxivlari faoliyati. Mashhur arxivlar va ularning ish tajribasi.

#### **3-mavzu. Rossiyada arxivlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi**

Rossiyada arxivlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Arxiv hujjatlar, ularning turlari, materiallari. Arxiv ishi sohasidagi islohotlar. Yangi va eng yangi davrda Rossiya arxivlari faoliyati.

#### **4-mavzu. AQShda arxiv ishining paydo bo‘lishi va rivojlanishi**

AQShda arxivlarning shakllanishi va arxiv ishining davrlar mobaynida takomillashib borishi. Tarixiy jarayonlarning arxivlar faoliyatiga ta’siri. Arxivlarning turlari, tarkibi, hujjatlari tarkibi.

#### **5-mavzu. Osiyo mintaqasi davlatlarida arxivlar tarixi**

XX asrda MDH arxivlarida arxiv ishi. Jahonning yetakchi arxivlari faoliyati. Jhon arxivlari tajribasi. Hozirgi zamon arxiv turlari, hujjatlar tarkibi, arxiv faoliyati, elektron arxivlar va arxivlarda ish yuritish tartiboti, arxiv menejmenti. Arxiv xizmatlari va mutaxassislari. Xalqaro arxiv tashkilotlari faoliyati.

### **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy elektron o‘qitish vositalari, kompyuter jihozlariga ega bo‘lgan auditoriyalard hamda arxiv muassasalarida tashkil etiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda ma’ruzada olingen bilim va ko‘nikmalar mustahkamlanadi, yanada boyitiladi. Arxivlar tarixi hamda jahon arxivlari tajribasiga doir adabiyotlar o‘rganiladi.

#### **1-mavzu. Jahonda arxivlarning paydo bo‘lishining tarixiy shart-sharoitlari va ularning evolyusiyasi**

Mavzuni o‘rganish ma mustahkamlash borasida turli hujjatlarni saqlash zarurati, hujjat saqlaydigan muassasalarning joyhon bo‘yicha hududiy o‘ziga xos xususiyatlari va ularga ta’sir etuvcht omillar aniqlanadi, taqqoslanadi. Hujjatlar turlari tasnifi bajariladi.

#### **2-mavzu. So‘nggi o‘rta asrlar hamda yangi davrda Yevropada arxivlar faoliyati**

XVI-XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropa hamda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida arxivlar taraqqiyoti yoritib beriladi. XIX asrda Yevropada arxiv sohasida o‘tkazilgan islohotlar va ularning arxiv ishiga bo‘lgan ta’siri aniq faktlar asosida tahlil qilinadi.

#### **3-mavzu. Arxiv muassasalarining Rossiya hududida paydo bo‘lishi va rivojlanishi**

O‘rta asrlarda Rossiya o‘lkasida arxivlarning paydo bo‘lishi, ularning turlari va hujjatlari xususida ma’lumotlar beriladi. So‘nggi o‘rta asrlar hamda yangi davrda Rossiyada arxishunoslik sohasida yuz bergen tarixiy jarayonlar yoritib beriladi.

#### **4-mavzu. AQShdagi tarixiy jarayonldarning arxiv ishiga bo‘lgan ta’siri**

AQShda arxivlarning paydo bo‘lishi va so‘nggi o‘rta asrlardagi taraqqiyoti tahlil etiladi. Yangi davrda AQSH arxiv ishi evolyusiyasi aniq misollarda ko‘rsatib beriladi.

#### **5-mavzu. Dunyodagi zamonaviy arxivlar faoliyati**

XX-XXI asr boshlarida dunyoda arxivlar faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar xususida mulohazalar bildiriladi. Mavzu yuzasidan qiyosiy tahlillar bajariladi. Hozirgi zamon arxivlari faoliyati to‘g‘risida qo‘sishimcha ma’lumotlar keltiriladi. Arxiv ishining dunyoda integratsiyalashuvi jarayoni tahlil etiladi.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamонавиј та’лим uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

**1-amaliy mashg‘ulot:** Qadimgi dunyo va o‘rta asrlarda arxivlari tarixi  
**(2 soat)**

**2-amaliy mashg‘ulot:** Yevropada so‘nggi o‘rta asrlar va yangi davrda arxiv ishi tarixi **(2 soat)**

**3-amaliy mashg‘ulot:** Rossiyada arxiv ishining rivojlanishi **(2 soat)**

**4-amaliy mashg‘ulot:** AQShda arxivlarning taraqqiy etishi **(2 soat)**

**5-amaliy mashg‘ulot:** **(2 soat)**

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOT MAZMUNI**

**5-ko‘chma mashg‘ulot:** Hozirgi zamon jahon arxivlari tajribasi **(4 soat)**

## **KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**Ko‘chma mashg‘ulotni tashkil etish shakli va mazmuni.** Ko‘chma mashg‘ulotlar tayanch davlat arxivlarida tashkil etiladi. Unda tinglovchilar arxiv faoliyati, ish yuritish va arxiv ishi sohasidagi muammolar yechimini izlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Olingan natijalardan arxivshunoslik va arxiv haqida ma’lumotlar olishga ko‘nikma hosil qiladilar.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **JORIY NAZORAT(ASSISMENT)NI BAHOLASH MEZONI**

Joriy nazorat(assisment)ni baxolash O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Tarmoq (mintaqaviy) markazida tasdiqlangan shakllari va mezonlari asosida amalga oshiradi.

Ushbu modulning joriy nazorat(assisment)ga ajratilgan maksimal ball-**0,8ball**.

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI**

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

### **«Keys-stadi» usuli**

**«Keys-stadi»** - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan usul hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday?/Qanaqa? (How?), Nima? (What).

## “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdag'i audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimoti.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

**Keys.** Jahan arxivlari tarixi va tajribasi kursi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarining hozirga qadar to'liq holda ishlab chiqilmagani, fan murrakab bo'lganligi tufaylimi, o'qituvchi talabchan bo'lganligi tufaylimi talabalarning o'zlashtirilishi yuqori emas edi. Unga fanni yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga kiritishni tavsiya etishdi.

- Talabalar o'zlashtirishni oshirish uchun nima qilmog'i kerak?
- Siz o'qituvchi o'rnila bo'lganingizda nima qilar edingiz?
- Ma'muriyatni o'rnila bo'lganingizda nima kilgan bo'lar edingiz?
- Talaba o'rnila bo'lganingizda o'zlashtirishni oshirish uchun nima qilgan bo'lar edingiz?

### “Assessment” usuli

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assessment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

### Tect

... qadimdan muhim  
yozuvlarni, hujjatlarni, chizmalarни  
saqlaydigan joy, muassasa, tarixiy  
davrlar mobaynida undagi ish  
yuritish tartibi takomillashib  
borgan. Nima haqida gap  
ketmoqda?

- A. kutubxona
- B. arxiv
- C. arxiv-kutubxona
- D. devonxona

### Tushunchcha tahlili

- Arxiv hujjatlarini  
turkumlash...

### Qiyosiy tahlil

Jahon tarixi, O‘zbekiston tarixi, Jahon arxivlari tarixi darslarida arxivlar haqida ma’lumot berilmoqda.

Uquv dasturlarda mavzu mazmunining farqi nimada bo‘ladi?

### Амалий қўникма

- «Qadimgi Misr arxivlari» mavzusi bo‘yicha ma’ruza darsning texnologik xaritasini tuzing

## «Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyligi muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Namuna:

Ilmiy-texnika arxivlari evolyusiyasi					
Qadimgi davrda		O‘rta asrlarda		Yangi davrda	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-мавзу: Jahonda arxivlarning paydo bo‘lishi va arxiv ishining rivojlanishi (qadimgi dunyo, o‘rta asrlar davrlari). Qadimgi Sharqda arxiv va arxiv-kutubxonalarining paydo bo‘lishi**

**REJA:**

- 1.1. *Qadimgi Old Osiyo, Misr, Yunoniston, Rim arxivlari.*
- 1.2. *O‘rta asrlarda arxiv ishi.*
- 1.3. *G‘arbiy Yevropada asosiy qirollik arxivlari*

**Tayanch iboralar:** arxiv, arxiv ishi, qadimgi dunyo, arxiv-kutubxona, miloddan avvalgi, o‘rta asrlar, arxiv ishi, Osiyo, Yevropa, davlatlar, arxiv turlari, tasniflash, arxiv hujjatlari, manbalar.

#### **1.1. Qadimgi Old Osiyo arxivlari.**

Ushbu hududlarda tarixda eng qadimgi davlatchilik namunalari aniqlangan Shumer davlatining ko‘plab arxivlari saqlanib qolgan. Qariyb yarim millionga yaqin loy taxtacha yozuvlar topilgan. Ba’zi joylardan 80, 100 va 200 mingga yaqin loytaxtacha hujjatlar topilgan. Ularning eng qadimgilari er.avv. III ming yillikka oid hisoblanadi. Arxiv harobalari Shumer davlatining Kish, Lagash, Ura, Uruka, Umma, Larsa va boshqa shahar harobalaridan topilgan. Ular orasida eng mashhuri Lagash shahridan topilgan arxiv harobasi hisoblanadi. Mazkur ibodatxona arxiv Ura shajarasining III avlodi (er.avv. XXV asr)ga tegishli hisoblanadi. Arxiv uchta yer osti xonalaridan iborat bo‘lgan. Loy taxtachalar devorning pastki qalin qismida stol shakldagi maxsus joylarga joylashtirilib taxlangan. Ba’zilari futlyarsimon idishlarda xonaning boshqa burchaklarida joylashtirilgan. Deyarli barcha hujjatlar ibodatxona xo‘jaligiga va ish kuchlaridan foydalanishiga doir bo‘lsa, bir nechta diniy mazmundagi hujjatlar ham topilgan.

Akkad davlati hukmronligi davriga (er.avv. II ming yillik boshlarida) oid topilmallar Shumer davlatidan keyin eng ko‘p arxiv topilmalari topilgan hudud hisoblanadi. Akkad davlatiga tegishli xo‘jalik va ma’muriy arxivlardan tashqariyana yana bir e’tiborga loyiq topilma arxiv-kutubxona hisoblanadi. Saqlovxona qadimgi ikki daryo oralig‘i hududlarida diniy markazlardan hisoblagan Nippur shahridagi ibodatxonasi harobalaridan topilgan. Mixxat yozuvli loy taxtachalar 80 ta binolarda saqlangan. Hujjatlarning ma’lum bir qismi ma’muriy ho‘jalik ishlariga tegishli bo‘lsa, ko‘pgina qismi adabiy mazmundagi hujjatlar ekanligi aniqlangan.

Qadimgi Vavilonda ish yuritish asoslari yuqori darajada rivojlangan. Shox Xammurapi saroyida doimiy ravishda devonxona faoliyat olib borib, unda shoxning farmonlari, ko‘rsatmalarini yozib boruvchi ko‘pgina kotiblar ishlagan. Shox

saroyida hujatlarni saqlash saqlovxonasi bo‘lib, shox nomiga kelib tushgan va saroy ho‘jalik hujatlari saqlangan. Ammo arxeolog olimlar tomonidan bugungi kungacha vavilon shoxlari arxivi topilmagan. Ammo uning noiblik shaharlarida arxivlar aniqlangan. Masalan, Xammurapining Larsa-Sindinama noibligidan arxiv topilmalari topilgan. Arxiv hujjatlarida Xamurapining davlat boshqaruviqa, qurilish ishlari, kanalarni ta’mirlash, aholi o‘rtasidagi da’vogarlik ishlariqa oid hujjatlar saqlangan. Xammurapining siyosiy arxivi bugungi kungacha aniqlangmagan bo‘lsada, ammo uning mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lmotlarni Mari Zimrilima davlati shoxining saroy arxivi hujjatlari tasdiqlaydi. Ushbu arxivdan 40 mingga yaqin loy taxtachalar topilgan bo‘lib, ularning bir qismi Zimrilima va Xammurapi o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar hisoblanadi. Qolganlari ho‘jalik, adabiy va diniy hujjatlar hisoblanadi.

Bogazkey (ba’zi manbalarda Bugozgoya deb ataladi) arxivni xetlar davlatining poytaxti bo‘lmish Xattusa (hozirda Bogazkey arxivni Turkiyaning Anatoliya shahrida joylashgan) harobalaridan 20 mingta 15 tonnalik loy taxtachar topilgan. Loy taxtachalardagi yozuvlar xett tilida bo‘lib, ko‘pgina matnlar, siyosiy bitiklar akkad tilida, boshqalari esa qadimiy tillardan kichik Osiyoga oid luviy, palay, xet, xuprit tillarida bitilgan.

Arxivdan shoxliklar axborotnomalari, buyruqlari, shartnomalari, shoxlar ro‘yxati, diplomatik yozishmalar, mulkiy qo‘lyozmalar, mansabdor shaxslarning hisobotlari, qonun hisobotlari, sud bayonnomalari ( otchilik to‘g‘risida, mifologiya va she’rlar, gimnlar, duolar, diniy bayramlar) haqida. Bundan tashqari yangi xett davlatiga tegishli shumer-akkad-xet lug‘atlari, loy taxtalar katalogi kabi hujjatlar bo‘lib, er.avv. XIV-XIII asrlarga oid. Hujjatlaridan bittasi er.avv. XVII asrga tegishli hisoblanadi.

1906-yil nemis olimi Y.G. Vinklex Bugozgoyada (Turkiya) xettlar poytaxti Xattusi xarobalarida Arxeologik qazishmalarga kirishdi. Qazishmalar natijasida Yaqin sharq tillarida bitilgan o‘n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett — Misr tinchlik shartnomasining mixxat varianti topildi. Chex tadqiqotchisi B. Grozniy 1915-yilda chuqr tadqiqotlar natijasida xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosani aytdi, natijada Xett davlati tarixini o‘rganish kuchayib ketdi. Olim A.Getse 1933 yil Xett davlati tarixini umumiyoq ocherkini yaratdi. Bundan tashqari, A. Getse 1933-yilda Kichik Osiyo tarixi umumiyoq ocherkini chop etdi. Muallif Xett davlati harbiy va sulola tarixiga asosiy e’tiborini qaratdi.

Ossuriya arxivlari haqida ko‘pgina ma’lumotlar mavjud. Ossur – ukmdorlarining 4 ta shahar qarorgohlaridan shoxlik arxivlari topilgan. Ular Akgnura, Dur-Sharrukin, Nineveya va kalxu shaharlaridir. Ossuriya poytaxti Ashshurdagi arxiv hujjatlari er. avv. XV-XIII asrlarga oid hisoblanadi. Ashshur shoxlik arxividan tashqari mahalliy ibodatxonanining arxiv-kutubxonasi ham saqlanib qolgan.

Ossuriya hududidagi mashhur topilma “Ashshurbanipal kutubxonasi” hisoblanadi.

Quyunjik arxivi-Quyunjik xarobalaridan Ossuriya poytaxti Nineviya shahri qoldiqlari topilib, uni o‘rganish ishlari XX asrning 30 yillarigacha davom etgan.

Qazish ishlari arxeolog olimlar G.Leyard, R.Kempbel-Tompsonlar tomonidan olib borilgan.

Quyunjiq tepaligining pastki qatlamlari er.avv. VI-III asrlarga oid. Eng qadimgi davrlarga oid er.avv. 23-18 asrlarga tegishli. Akkad davlati xukmdorining bronzadan ishlangan boshi, saroy qoldiqlaridan chizilgan sur'atlar topilgan. Xarobalandan Nabu, Ishtar ibodatxonalarini Sinaxreb va Ashurbanipal saroyi qoldiqlari topilgan.

Eng ahamiyatli topilmalardan biri Ashurbanipalning arxiv-kutubxonasi bo'lib undan: loy taxtachalaridagi shumer tilidagi matnlar, ossur-vavilon adabiyotlari va ilm fanga oid manbalar, ish hujjatlari topilgan.

Nineveya arxivi - Qadimgi Ossuriya davlatining shaharlaridan biri bo'lib, hozirgi Iroq davlatining Mosula shahrida joylashgan. Nineviya shahri er.avv. VIII-VII asrlarda Ossuriya poytaxtiga aylantirilgan. Nineviya shahrining shimoliy qismida Ashurbannipal Sinaxereb saroyining janubiy-g'arbiy qismi joylashgan. Bu yerdan Ashurbannipal arxivini va 20 mingta kitob ya'ni loy taxtali yozuvlar topilgan. Nineveya janubiy qismida Imtor, Emishmish ibodatxonalarini va Asarxaddan saroyi joylashgan.

Er.avv. 612 yilda Nineviya shahri yangi Vavilon shoxi Nabapalasar va Midiya shoxi Kiaksarlar tomonidan yer yuzasidan yo'q qilib tashlangan. Rimliklar shahar o'rnida harbiy kolonna tashkil etgan. Nineviya shahri haqidagi ma'lumotlar Kuyunjiq shahri qoldiqlaridan ko'pgina ma'lumotlar topilgan. Ushba arxiv harobalaridan topilgan 20000 mingdan ortiq topilmalar Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

## 1.2. O'rta asrlarda arxiv ishi.

**Qadimgi Misr arxivlari.** Misr arxivlari haqida ilmiy ma'lumotlarga ko'ra olimlar Misrda ikki daryo oralig'i mamlakatlaridan oldin ham yozuv shakllangani to'g'risidagi faktik ma'lumotlarga dch kelishgan. Ular ibodatxonalar devorlari, qabrlarda yozib qoldirilgan. Ammo bu kabi boshqa manbalar ham Misrdagi arxivlarning faoliyatini aniq yoritib berishga asos bo'la oladi. Mamlakatning asosiy arxivini Firavn saroyidagi arxiv bo'lib, shox nomiga bitilgan hujjatlarning asl nusxalarini, Firavnnning rasmiy faoliyatiga oid va boshqa hujjatlar saqlangan. Firavn saroyi va ibodatxonalar yilnomalarni yozish markazlari sifatida faoliyat olib borgan. Firavnlar saroyi arxivlariga doir ma'lumotlarni o'rganishda Tel-amarn arxivini muhim ahamiyat kasb etadi.

Tel-El-Amaran arxivini – tarixda Misr Firavnlari (Exnaton er.avv. 1364-1347 yillar) arxivini nomi bilan mashhur bo'lib, 1885 yil Tel-el-Amarn shahrida mahalliy axoli vakillari tomonidan tasodifan topilgan.

Arxivda loy taxtachalarda Akkad tilidagi diplomatik yozishmalar, Firavn sulolasining Amenxotepu III va Amenxotapu IV larning Mitonni, Osuriya, Vavilon va kichik Siriya, Falastin shoxliklari bilan yozilgan yozishmalari topilgan. Ushbu arxiv – Misr, yaqin Sharq tarixining er.avv. XIX asr ikkinchi yarmi va XIV asr boshlariga oid o'ta muhim manba hisoblanadi. Bungu kunda 382 ta loytaxchalar topilgan bo'lib, 300 dona atrofida loy taxtacha yozuvlari Germaniya (194 donasi), Britaniya, Kair, Oksford, Luvr, Ermitaj va boshqa muzeylarda saqlanadi.

Bundan keyin Misrda asosiy arxivlarga koxinlar tasarrufidagi ibodatxonalar arxivlari hisoblangan. Ularda firavnlar saroyida saqlanmagan siyosiy bitiklar, ilmiy, adabiy matnlar saqlanib qolgan. Bnday yirik saqlovxonalariga misolsifatida Karnak, Luksor dagi ibodatxonalar, Fivadagi Ramessey ibodatxonalarini misol qilib olish mumkin.

**Qadimgi Yunoniston arxivlari.** Bugungi kunda qadimgi Gretsiya hududlaridagi arxiv ishi tarixiga oid bat afsil ma'lumotlar mavjud emas. Krit orollaridagi «Minos saroyi» arxivi 1900 yilda Evans keyinroq esa Ventris Cheduik tomonidan o'rganilgan. Arxiv 2ta binodan iborat bo'lib, loy taxchalar Shumer davlati arxiv saqlovxonalariga o'xshash tarzda saqlangan. Keyinchalik Pilosa va Miken arxivlaridan xo'jalik hayotga oid ma'lumotlar loy taxtachalarda bitilgan. Ular tahminan er.avv.

**Qadimgi Rim arxivlari.** Rim arxivlari haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda ko'plab aks etgan. Chunki o'sha paytlarda arxivlar davlat va uning fuqarolari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Qadimgi Rim arxivlarini ikkita guruhga bo'lish mumkin:

1. Kohinlar arxivlari
2. Fuqarolar arxivlari

Koxinlar arxivlari-kapitoliyadagi Yupiter ibodatxonasi ham ibodatxona ham arxiv sifatida ahamiyatga ega bo'lgan. Ibodatxona arxividagi hujjatlar taxminan er.avv. VI asrga tegishli. Lekin Pontifiklar arxivi undan ham qadimiyroq hisoblanadi. Pontifiklar vaqt ni aniqlash, diniy masalalar, davlat va shaxsiy yerlar, qurilishlar va boshqa masalalarda birinchi maslahatchi bo'lgan. Ular kalendor ishlarini yuritishni er.avv. IV asargacha sqlab qolganlar(er.avv. 304 yilda kalendor joriy qilingan). Bu jarayonlarda esa fuqarolar ma'lumotnomalar olish va ma'lumotnomalar tuzishda ularga tobe bo'lib qolganlar. Arxiv Kapitoliyadagi Yunona ibodatxonasida joylashgan. Arxivda kalendarni yuritish hujjatlari, ob-havo to'g'risida, pontifiklar mansabdor shaxslarning qayta saylanish muddatlarini hisoblab, almash tirish muddatlari haqida ogohlantirib turgan, tadbir marosimlari haqida ma'lum bir kunlarni belgilab bergenlar.

Yana kichik doirada faoliyat olib borgan Fetsion-koxinlar xalqaro munosabatlarga oid vazifalarni bajarganlar va bu jarayonlarda paydo bo'lgan hujjatlarni o'zlarida saqlaganlar.

Keyinchalik Rimda xalqaro hujjatlar senat davlat arxivlarida saqlana boshlangan. Shunga qaramay ushbu hujjatlar Rim tashqi siyosatini va davlat hududini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hujjatlar esa Kapitoliyadagi Fides ibodatxonasida saqlangan.

Eramizning boshlari da 3000 mingga yaqin hujjatlar bo'lgan. Eramizning 88 yilida arxiv yong'in tufayli yo'q bo'lib ketgan. Lekin imperiyaning turli hududlaridan hujjatlarning nusxalari olib kelinib faqatgina ma'lum bir qismigina tiklanishga muvaffaq bo'lingan.

**Osiyodagi qadimgi arxiv harobalari.** Eng qadimgi yodgorliklar Kavkaz orti hududlarining qadimgi Urartu davlatiga tegishli er.avv. IX-VI asrlarga oid yozma manbalar topilgan. Ushbu yozma manbalar loydan yasalgan qalin loy

taxtachalaridagi matnlar va shu bilan birga toshlarga yozilgan, qurollarga, harbiy yurishlardan oldin yozilgan loytaxtachalar topilgan.

Qora dengiz shimolidagi eramizgacha V-VI asrlarga oid Qadimiy shahar qoldiqlaridan marmar arxivlari saqlanib qolgan. Ular katta-katta toshlarda, devorlarda, qabristonlarda bitib qoldirilgan. Arxiv hujjatilarida tinchlik bitimlari, qonunlar, xalq yig‘ini qarorlari va mansabdar shaxslarning hisobotlaridan iborat.

Kichik Osiyoda arxiv yozuv bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Ularda yana er.avv. I asrga oid yozuvdarda Kichik Osiyo davlati bo‘lmish Parfiya davlatining iqtisodiy-siyosiy hayoti to‘g‘risida ma’lumotlarni uchratish mumkin.

**O‘rta Osiyodagi arxiv harobalari.** Mug‘ tog‘i harobalaridan topilgan sug‘d arxivii- 1932-33 yillarda Hozirgi Tojikiston respublikasida Mug‘ tog‘i harobalaridan mahalliy cho‘pon Jo‘rali Maxmadali tomonidan tasodifan aniqlangan. CHo‘pon tomonidan turli xildagi yozuvlar bitilgan qog‘oz parchalari topib oladi va uni mahalliy hokimiyat vakillariga taqdim etishadi. Hokimiyat vakillari yozuvlarni foto nushalarini RSFSR Fanlar akademiyasiga jo‘natishadi. Markazdan kelgan arxeolg olimlar darxol arxeologik ekspeditsiya tashkil etishadi.

Mug‘ tog‘i hujjatlari sug‘d arxivii deb atalib, VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjatlar Sug‘d podsholigiga tobe Panch hokimligi aroyi hamda turli viloyatlar hokimlari va amaldor ayonlarga tegishli hujjatlari yig‘indisidan iborat. Arab istilosini kunlarida, xususan 722 yilda Panch hokimi, bir muddat Sug‘d podshosi taxtiga davogar sifatida ish ko‘rgan Devashtich boshliq otryad Mug‘ tog‘ida joylashgan mudofaa qasriga chekingan. Shunda saroy hujjatlari ham qarga keltirilgan. 722 yili arablar qamal qilib bosib olgach uni vayron qilganlar. Devashtichni ea xalifalikning Xurosondagi noibi hukmiga jo‘natganlar. Devashtich Xuroson noibi tomonidan qo‘yilgan shartlarni qabul qilgach Sug‘dga qaytarib yuborilgan. Ammo hufya bo‘yruq asosida u Rabinjan (hozirgi Kattaqo‘rg‘on shahri yaqinida joylashagan ilk o‘rta asr harobasi) qabristonida qatl qilingan.

O‘rta Osiyo hududlarida qadimgi davrlardan arxivlar mavjud bo‘lgan. 1948-1950 yillarda arxeolog olim AS.P.Tolctov boshchiligidagi Xorazmdagi Tuproqqal'a harobasida arxeologik tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida Tuproqqal'a harobalaridan melodiy III-IV asrlarga oid 100 ga yaqin arxiv hujjatlari topilgan. Tadqiqot davomida ushbu hujjatlarning Xorazm podshohlariga tegishli ekanligi aniqlangan.

Arxiv hujjatlarining 18 tasi yog‘ochga, ko‘pchilik qismi pergamentlarga (mol yerisidan tayyorlangan qog‘oz o‘rnidagi vosita). Arxiv hujjatlarining 8 tasi yaxshi saqlangan. Tarixchi olimlar arxiv hujjatlarining atiga 26 tasini o‘qishga muvaffaq bo‘ladilar.

Tuproqqal'a harobalaridan aniqlangan arxiv hujjatlarini 2 guruhga turkumlash mumkin:

1. Saroy xo‘jalik hujjatlari
2. Soliq hujjatlari

Birinchi guruhdagi hujjatlar pergamentlarda yozilgan bo‘lib, ularda asosan saroy xo‘jalik daromadlari haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Hujjatlarda podshoh

xazinasiga kelgan daromadning nomi, miqdori hamda qayerdan kelganligi haqidagi ma'lumotlar saqlangan.

Ikkinchi guruhdagi hujjatlarga soliq haqidagi ma'lumotlar taxtachalarda bitilgan.

Yana o'rta Osiyo arxivlariga oid Somoniylar davlatiga oid yer ishlari bo'yicha davlat arxiv idorasi mavjud bo'lgan. Somoniylar davlati xukumronlik yillari IX-X asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib daraxt, teri, pergamentlardan qog'ozga o'tish davri bo'lgan. Shundan so'ng boy feodallarning shaxsiy arxiv kutubxonalarini paydo bo'la boshlagan. Bu turdag'i arxiv-kutubxonalar to'g'risida olim mutafakkirimiz Abu Ali Ibn Sino yozib qoldirgan.

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi I ming yillikning so'nggida arxiv-kutubxonalar paydo bo'lgan. Dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroyida va ibodatxonalarda tashkil etila boshlagan Turon xalqlari Misr, Eron, Yunoniston va ularga qo'shni bo'lgan davlatlar bilan birga yaqin aloqada bo'lgan. O'zbekiston xalqlarining qadimgi yodgorliklari saqlanmagan. Abu Rayxon Beruniyning xabar berishicha kitob xazinalari va ularni saqlovchi joylar turli istilolar davrida (VII-IX)da yo'q qilib yuborilgan.

### **1.3. G'arbiy Yevropada asosiy qirollik arxivlari**

O'rta asrlar bu yangi davrga o'tish bo'lib, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'sish G'arbiy Yevropada birinchi zamona viy iqtisodiy va davlat arxivlarining asosiy ko'rinishi paydo bo'ldi. O'rta asrlarning yakunlanishida ko'pgina ilmiy kashfiyotlar qilinishi, aniq fanlarning rivojlanishi ilmiy texnik hujjatlari tarixining rivojlanishi shu bilan birga shaxsiy ilmiy–texnik arxivlarning shakllanishiga ham sabab bo'ldi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ilk o'rta asrlarda "varvarlar" qirolligi arxivlari paydo bo'lgan. Ushbu arxivlar bir joydan boshqa joylarga ko'chib yurgan. Bundan tashqari yirik monastirlar, yepiskopliklar va feodallar saroylarida ham arxivlar mavjud bo'ladi. Ko'pgina yong'inlar va urushlar natijasida arxivlar yo'q bo'lib ketgan. 5-9 asrlarga doir zodagon boylarning arxiv hujjatlari bizgacha yetib kelgan.

G'arbiy Yevropadagi monastir arxivlariga Italiya hududidagi Montekassino, Farfa, Bobbio, Fransiyadagi Parij, Sen-Jeremen, Germaniyadagi Fulda, Sen-Gallen arxivlarini misol qilish mumkin.

G'arbiy Yevropadagi ilk o'rta asrlarga oid eng yirik arxiv papa arxivlari hisoblangan. Ushbu arxiv 4 asrda tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik Vatikan arxivi nomi bilan atalgan.

Vatikan Arxivi Yevropa o'rta asrlar tarixidagi kimmata baho va eng tarixiy hujjatlarni o'z ichiga jamlagan arxiv hisoblanadi. Eng tarixiy hujjatlari 4 asrlarga oid hisoblanadi. Arxiv 8 ta seksiya bo'limdan iborat:

1) Vatikan Maxfiy hujjatlari 9 asrga oid papalar kengashlari hujjatlari, 15-16 asrlardagi cherkov feodallari hujjatlari va boshqa ko'pgina tarixiy hujjatlar mavjud.

2) Avinyon Arxivi hujjatlari. Ushbu bo'limda Papalar boshqaruvi tarixida Avinyonlar sulolasi muhim o'rinn tutgan. Avinon sulolasi boshqaruvi 1309-1377 yillardan to 18 asrning oxirigacha bo'lgan ma'lumotlar saqlangan.

3) “Muqaddas Farishta” saroyi arxiv hujjatlari, arxivda qirol yorliqlari, papalar devonxonasi yorliqlari, 4 asrning eng qadimgi hujjatlari saqlangan.

4) Datarii Arxivi benefitslar cherkov mansabdorlari shikoyati, harbiylar daromad va chiqimi, papalar kanselyariyasi avf etishini so‘rab qilingan murojat hujjatlari va boshqa hujjatlar mavjud.

5) Apostol papalari arxivi, 13-16 asrlarga oid kirim chiqim kitoblari va boshqa tarixiy hujjatlar mavjud.

6) Konsistoriya Arxivi- papalar kengash organi hujjatlari, aktlar, bayonnomalari va boshqa hujjatlar saqlangan.

7) Davlat sekretariat arxivi. papalar tashqi siyosati va ularning Yevropa mamlakatlari bilan munosabatlari haqidagi va 16-19 asrlar yevropa hukumatlari, kardinallar xatlari, tinchlik shartnomalari, boshqaruv hujjatlarini o‘z ichiga olgan.

8) Ushbu bo‘limda har xil kolleksiya Arxivlari jamlangan bo‘lib, tuhfalar, familiyalar, cherkovlar, ordenlar fondlari jamlangan.

X-XII asrlarga kelib Yevropada shahar arxivlari paydo bo‘ladi. Shahar arxivlarida shikoyat yorliqlari, sud qarorlari, qarorlar, farmoyishlar, moliyaviy hisobotlar saqlangan. Keyinchalik tovar ayirboshlash va savdoning rivojlanishi natijasida notarius arxivlari vujudga kelgan. Qirollik hokimiyatinig kuchayishi va markazlashtirilgan davlatlarning vujudgakelishi natijasida Qirollar arxivlarinig mavqeい yanada oshadi. Masalan, Fransiyada Qirol arxivlari “Xartiya xazinasи” (Tresor des Chartes) olish mumkin. Keyinchali ushbu arxiv provinsiyalardagi va joylardagi feodallar arxiv hujjatlarini qirolik arxiviga olib kelindi.

Ispaniya XV asrda birlashtirilgan so‘ng Umumispaniya Qirollik arxivi Simankas qa’lasida tashkil etilgan.

Boshqa yevropa mamlakatlariga qaraganda Angliyada arxiv hujjatlarini yig‘ilishi yaxshi shart-sharoitlarda yuz bergan. Qirollik devonxonasi va boshqa muassasalarda hujjatlarning to‘planib borishi natijasida Angliya hukumati o‘z vaqtida ularni joylashtirish choralarini ko‘rgan. Vaqt o‘tishi bilan hujjatlar o‘z siyosiy qiymatini va amaliy ahamiyatini yo‘qatgandan so‘ng hukumat ularga e’tibor qaratmagan. Bunday saqlovxonalar o‘rta asrlarda bir nechtani tashkil etgan. Angliyada esa 14 asrlarda 3 ta yirik qirol arxivlari mavjud edi.

Shunday arxivlardan bittasi Westminster saroyida tashkil etilgan Tauer va Kapella minoralaridagi qirollik arxivi edi. Kapella arxivi 14 asr oxirlarida tashkil etilgan bo‘lib, unda ilgarigi departament va o‘rta asrlar sud va o‘z-o‘zini boshqarish organlari hujjatlari yig‘ilgan.

XVI asrda esa davlat hujjatlari arxivi tashkil etilgan. 1578 yilda tashkil etilgan «Davlat hujjatlari» arxivi qirol Tyudor va uning yaqinlari, tashqi siyosatga va mustamlaka siyocatiga oid hujjalar mavjud bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

XVIII asrda parlamentning deputatlari so‘rovlariga binoan Angliya poytaxtida arxivlarni o‘rganib chiqish bo‘yicha komissiya tuzilgan. Ammo bu ishlar natijasida aniqlangan arxivlarning kamchiligi bartaraf etilmagan. 1800 yilda parlament tomonidan arxivlarni boshqarishda yangi qo‘mita tuzilib, u 1830 yilgacha faoliyat olib borgan. Ammo qo‘mita arxivlarni rivojlantirishda chora tadbirlar olib bormagan. 1836 yilda milliy tarixga qiziqishlar siyosiy tus olib, yangi arxiv qo‘mitai

tuzilgan.

Buyuk Rim imperiyasi davrida Ispaniya muhim provinsiya va madaniyat markazlaridan biri edi. O'sha paytlardayoq uning hududlarida arxivlar mavjud bo'lgan. Lekin aynan rim imperiyasi arxivi sifatida saqlanmagan. Uch yil hukmronlik qilgan Vestgot qirolligi (V-VIII asrlar) devonxonasida anchagina arxiv hujjatlari to'plangan edi. Ularning barchasi rim imperiyasi muassasalari ish yuritish tartibi asosida tashkillashtirilgan. Ammo bu arxivlar ham yo'q bo'lib ketgan. Arablar hukmronligi davrida Ispaniyaga yangi yozuv vositasi qog'oz kirib kelgan. Yevropa mamlakatlari o'sha paytda qimmatli yozuv vositasi pergamentlardan keng foydalanishgan. Ispaniyada arxivlarning keyingi rivojlanish bosqichi keyingi Ispan qirolliklarida shakillangan. Ulardan yiriklari Kastiliya, Aragona, Navarro qirolligi, Barselona grafliklarida katta ahamiyatga ega bo'lgan arxivlar mavjud bo'lgan. Ular hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, IX-XII asrlarga tegishli hujjatlar mavjud. Barselonadagi Kataloniya grafligi arxivida XIII asrga tegishli Yevropada mashhur arxiv opislari saqlangan. Shu bilan birga Cherkov muassasalarida ham hijjatlar yig'ilib borgan. Umuman olgan feodalizm davrida faqatgina qirolik hujjatlarini yig'ish va saqlash ishlariga e'tibor qaratilgan. Chunki bu hujatlardan qirolik hukumati davlani boshqarishda va feedallar bilan kurash olib borishda foydalangan.

1479 yilda Ispaniya davlatining birlashtirish ishlari yuz berib, unda Aragona va kastiliya qirolliklari birlashgan (Izabella va Ferdinand). Albatta ular o'z hukmronlik doirasini kengaytirish maqsadida arxiv hujjatlaridan keng foydalanishgan. 1509 yilda qirolik farmoni bilan hukumatning barcha muhim hujjatlari bir joyga yig'ilgan. Hujjatlar Valyadolid (Ispanyaning eski poytaxti) shahrida to'plangan, keyinchalik shahada arxiv binolari yetishmasligi muammolari kelib chiqqan.

1542 yilda Karl IV hukmronligi davrida Simankas qa'lasi bir qismi berilgan (Valyadolid shahri yaqinida). Ushbu qa'laning devorlari mustaxkam bo'lib, hujatlar xavfsiz joyda edi. Ularni saqlash uchun maxsus saylangan arxivist Diyego de Ayala arxiv hujjatlarini o'sha paytda juda yaxshi tartibga solgan. Albata arxivda yig'ilgan hujjatlar XV asr oxiri qirolligiga mansub hisoblanadi, oldingi boshqa alohida qirolliklar hujjatlari o'z joylarida saqlangan. Aragona karonasi hujjatlari Barselona va Saragosa shaharlariga taqsimlandi. Ispaniya XVII-XVIII asrlarda ham iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakat bo'lgan. Ko'pgina arxivlar tashkil etilgan bo'lsada, ular bir-biri bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli arxivlar faoliyatida asta-sekin tartibsizliklarga olib keldi. Hatto Simankas arxivsi ham XVIII asr oxirlariga kelib, hujjatlar soni ortgan bo'lsada, juda tartibsiz holatda edi.

Ko'pgina hujjatlar cherkov va monastir muassasalari tasarrufida edi. Ularda ritsarlar arxivlari va monastir ordenlari hujjatlari mavjud edi. Ushbu hujjatlar hukumat nazoratida bo'lmagan va ko'p hollarda Vatikandagi Rim papalari arxiviga olib ketilgan. Albatta arxivlar markazlashmagan va tartibsiz holda bo'lgandan keyin, ilmiy tadqiqot ishlariga ruxsat berilmagan. 1844 yilgacha tarixchilar hukumat arxivlaridan foydalanish taqilganib, faqatgina dvoryan tarixchilargina kirish huquqiga ega bo'lgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Eng qadimgi arxivlarning davri va ular topilgan hududlar to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Qadimgi Gretsiya arxivlarining tasnifi qanday, arxivlarni turlari bo‘yicha sharhlang.
3. Rim imperiyasining tashkil etilish tarixi haqida ma’lumot to‘plang.
4. G‘arbiy Yevropadagi ilk o‘rta asrlarga oid eng yirik papa arxivi qanday tarixiy ahamiyatga ega?
5. Ispanyaning yagona davlat sifatida shakllanishiga oid ma’lumot to‘plang.
6. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa arxivlarida ilmiy ma’lumotnomalar appparati tizimi qanday xususiyatga ega edi?

### **Adabiyotlar:**

1. Бржостовская Н.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах (История и современная организация). М., 1971. 220 с.
2. Карапетис И.В. Економический архиви Западной Йевропи и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
3. Мадковский И.Л. Архиви и архивоиye дело в рабовладелческих государствах древности и в епоху феодализма. М., 1959.
4. Самоквасов Д.Й. Архивнойе дело на Западе. М., 1900.
5. Старостин ЙЕ.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах. Свердловск: Воскресеніе, 2010. 482 с.

## 2 - mavzu: YEVROPADA SO'NGGI O'RTA ASRLAR VA YANGI DAVRDA ARXIV ISHI TARIXI

### PEŽKA:

- 2.1. Yevropa mamlakatlarida so'nggi o'rta asrlarda arxivlar va arxiv ishi.
- 2.2. Yangi davrda arxiv ishining tashkillashtirishi.
- 2.3. XX asr boshlarida arxivlar faoliyati.

**Tayanch iboralar:** so'nggi o'rta asrlar, Yevropa davlatlari, arxivlar, arxiv ishi, arxiv turlari, tasnif, arxiv islohoti, yangi davr, arxiv hujjatlari.

Fransiyada 1880-90 yillarda Burjua inqilobi va arxiv islohotlarining o'tkazilishi. Yevropa mamlakatlarida ichida Fransiya davlati arxiv ishiga oid ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatda birinchi bo'lib arxiv ishi borasida islohotlar olib borilgan hisoblanadi. Albatta islohotlar faqatgina qog'ozda emas yoki ko'rgazma uchun emas, balki ular hayotga, jamoatga, davlatga tadbiq etilgan birinchi davlat hisoblanadi. Fransiyada arxiv ishini markazlashtirish, arxivlar borasidagi qonunchilik hujjatlarini ro'yxatlashtirish, to'plamlashtirish, arxiv sohasida mutaxassislar tayyorlash borasida olib borgan ishlar o'z vaqtida bir qator Yevropa mamlakatlariga o'rnatish sifatida xizmat qildi.

Fransiyada arxiv ishi borasidagi bir qotor rivojlanish ishlariga sabab bo'lgan jarayonlar, XVIII asr oxiridagi burjua inqilobi davrida sodir bo'lib o'tgan.

Kartiyaninng qadimgi boyligi ya'ni hujjatlariga hukumat umuman e'tibor qaratmadni. Hujjatlar haroba tashlandiq joylarda saqlangan. Arxiv esa yanada tarixiy dolzarb hujjatlar bilan to'lib boravergan. O'sha davr siyosatiga oid hujjatlar qiroli ish yuritish xonasi va devonxonalarida saqlanib qolgan. Markaziy muassasalar hujjatlari, ularning shaxsiy hujjatlari hisoblanib, boshqa yuqori organlar tomonidan nazorat qilinmagan. Bundan tashqari katta tashkilotlarda ish yuritishda xilma-xillik bo'lib, alohida ish olib borish usuli ko'pgina ma'muriy, sud, moliya, harbiy va boshqa muassasalar arxivlari ish faoliyatida mavjud edi.

Revolusion hukumatning birinchi qilgan ishlari revolyusion vaziyatda paydo bo'lgan hujjatlarni va qonunchilik hujjatlarini tartibga solish bo'ldi. Milliy Kengash a'zolari ushbu hujjatlar siyosiy ahamiyatga ega ekanligini anglagan holda, uning saqlanish joyi Milliy arxivda ekanligini ta'kidlashgan.

Bunday arxivni tashkil etish uchun Fransiya davlati 1789 yil 29 iyunda qaror qabul qildi. Ushbu arxivni tashkil etilishi muxim ahamiyatga ega bo'lib, Milliy Kengashda bu masalaga katta e'tibor berildi. Arxivning tashkil etilishida millat o'z milliy boyligini saqlanish joyini va huquqini ko'rди.

1790 yil sentabr oyida Fransiya milliy arxivining ustavi qabul qilindi. Arxivga Milliy arxiv maqomi berilishi bilan birga u umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muassasa sifatida shakllandi. Qabul qilingan ustavga asosan barcha

hujjatlar, ya’ni Fransiyaning ma’muriy bo‘linishi, davlat tizimiga oid va boshqa barcha hujjatlar arxiv tarkibiga kirishi lozim edi.

Fransiya Milliy arxivining ustavi boshqa davlatlar arxivlari ustavlaridan farqi shundaki uning jamoat, ya’ni uning xalq arxivi deb e’lon qilinganida edi.

1790 yil qabul qilingan arxiv ustaviga ko‘ra “har bir fransuz ma’lum bir belgilangan kunlar, haftalar, soatlarda arxivga kelishi va o‘zini qiziqtirgan hujjatlar bilan shaxsan tanishishi mumkin” deyilgan edi. Ammo keyinchalik ushbu prinsiplarni xalqaro va ichki siyosiy vaziyatlar unga bir qancha o‘zgartirishlar, cheklashlar o‘rnatalishiga sabab bo‘ldi.

Milliy arxiv tashkil etilgandan so‘ng (1789 yil 4 avgustda) bosh arxivistni saylash lozim edi va bu lavozimga Kengash deputati qilib, huquqshunos Arman Gaston Komyuz saylandi. Saylov juda muvofaqqiyatli o‘tib, munosib nomzod saylangan edi. U umrining oxirigacha, ya’ni 1804 yilgacha shu lavozimda qoldi.

Fransuz hukumati inqilobdan so‘ng, hujatli materiallar haqidagi masalalarni hal qilgandan so‘ng, inqilobdan oldingi hujjatlar taqdirini o‘ylay boshladi. Chunki inqilobdan so‘ng eski muassasalar faoliyati tugatildi, korxonalar, monastirlar yopildi, ko‘pgina boy-zodagonlar o‘z joylarini tashlab ketdi. Hamma joyda arxivlar yangi hokimiyat vakillari qo‘liga o‘tgan edi.

Birinchi bo‘lib hukumat bu hujjatlarga e’tibor qaratdi, hatto bu hujjatlarni yo‘q qilish kerak degan hokimiyat vakillari ham topildi. Ularning fikricha agarda ushbu hujjatlar yo‘q qilinsa, feodalizmni ham butkul yo‘qotamiz deb hisoblashar edi. Ammo ko‘pgina tarixchilar, inqilob haqida yozuvchilar arxiv hujjatlaridan feodallarning shajarasini, qarindosh urug‘chilik aloqalarini aniqlash ishlarni olib borishar edi va bu hujjatlarni saqlanib qolishi tarafdoi edi. Keyinchalik bu fikrlarga yangi hukumat ham e’tibor qaratdi va arxiv hujjatlaridan dvoryanlarning yerlarini musodara qilish, yerlarni sotish va boshqa ko‘pgina yaxshi ishlarda votchina hujjatlariga katta e’tibor qaratdi.

Milliy arxiv Komyuz boshchiligidagi mamlakatning arxivlar tizimini va hujjatlarini boshqarish markazi sifatida faoliyat olib bordi. 1791-1792 yillarda Komyuz va uning safdoshlari Parijdagi Milliy arxiv hujjatlarini saqlash chora tadbirdari, alohida arxivlarni tashkil etish ishlari olib borildi.

1793 yilda ho‘jalik materiallari bo‘lmagan oldingi ma’muriy va muassasa va korporatsiyalar hujjatlari milliy arxiv nazoratiga olindi. O‘sha yili kuzda Milliy arxivga hujjatlarni qabul qilishda ikkita yangi bo‘limlar, arxivning o‘zida esa uchta bo‘lim mavjud edi. Arxivning o‘zida

1. Qonunlik bo‘limi
2. Huquqiy bo‘lim
3. Dominal bo‘lim

Birinchi bo‘limda qonunchilk organlari va muassasalar, idoralarning hujjatlari saqlangan bo‘lsa, ikkinchi bo‘limda sud muassasalarining hujjatlari, uchinchi bo‘limda davlatning va fuqarolarning huquqiga oid, turli xildagi moliyaviy va ma’muriy muassasalar hujjatlari, turli hududlar hujjatlari jamlangan edi.

Komyuz va ko‘pgina fransuz arxivshunoslari davlatning barcha tarixiy va boshqa arxiv hujjatlari, qo‘lyozma, votchina, dvoryanlarning barcha ho‘jalik

hujjatlari va barcha muhim hujjatlar Milliy arxivga to‘planishi zarur deb hisoblashar edi. Ammo bu ishlarda birozgina qonuniy jihatdan qarama- qarshiliklar mavjud edi. Arxivlarga hujjatlarni to‘plashda 1790 yilgi hukumat dekretiga asosan, arxiv hujjatlari har bir hududdagi hududiy arxivlariga topshirilishi lozim edi. Dekretning ushbu moddasiga asosan Fransiya davlatinig hududiy arxivlar tizimi shakillanishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Ammo o‘sha paytda olib borilgan arxiv islohatlariga qaramay, aholining ongi tushunchasida faqatgina hozirgi kundagi arxiv hujjatlari arxivlarga topshirilishi, eski qo‘lyozma hujjatlar esa kutubxonalarga topshirilishi lozim degan fikr mavjud edi. Aynan o‘sha paytda hukumat tomonidan kutubxonachilikka katta e’tibor berilgan. Parijda jamoat kutubxonalari mavjud bo‘lib, ular aristokratlar, universitetlar va monastirlar kutubxonalari asosida tashkil etilgan edi.

Bu kutubxonalardan biri Parijdagi Milliy kutubxona bo‘lib, u qirol kutubxonasi asosida tashkil etilgan edi. XVIII asrda bu kutubxonada faqatgina pechatlangan kitoblar emas balki, qo‘lyozma kitoblar ham mavjud edi. Inqilob davrida va undan keyin musodara qilingan kutubxonalar hisobiga u anchagina boyidi.

Kutubxonalarga faqatgina tarixiy madaniy xarakterdagи materiallar topshirilmasdan, balki adabiy qo‘lyozmalar, xronik, diniy, olimlar va yozuvchilarining qo‘lyozma materiallari, universitet va kollejlar materiallari yig‘ilgan edi.

Bundan tashqari turli xildagi yorliqlar, xartiya hujjatlari, huquq va qonunchilik yodgorliklari, cherkov va familiya ( tug‘ilganlarni ro‘yxatga olish) hujjatlari, eski ro‘yxatga olish hujjatlari va boshqalar ham topshirilgan. Milliy kutubxonaga tarixnavis Moro tomonidan Fransiya tarixiga oid kattagina koleksiya yig‘ib berildi.

1796 yili qonuniy jihatdan departament arxivlari faoliyati ko‘rib chiqildi. Distriktlarga yig‘ilgan hujjatlar departament arxivlar tarkibiga o‘tgan edi. Qonunda departament arxivlarining milliy arxivga bo‘ysunishi masalasida hech qanday aniq gap aytilmagan edi. Shuning uchun Milliy arxivni Markazlashtirish ishlari amalga oshirilmadi. Fransiyada Termiadora burilishidan so‘ng Napoleon hukmdorligi davrida arxiv ishi biroz orqaga ketdi. Milliy arxiv inqirozga yuz tutdi. Milliy arxiv bo‘ysungan bosh qonunchilik organining ahamiyatini yo‘qolib borishi, arxivni butlashda u muhim ahamiyatga ega bo‘lgani uchun ham shunday oqibatlarga olib keldi. Yangi materiallarning kelib tushishi to‘xtab qoldi. Asosiy siyosiy hukumatning yangi tashkil etilgan organi Direktoriya devonxonasida, keyin birinchi konsulda yig‘ilar edi. O‘ta muhim va maxfiy hujjatlar Imperator Napoleon arxivida maxfiy saqlanar edi. Milliy arxiv nomi Imperiya arxivi nomini oldi va u endi Ichki ishlar vazirligiga bo‘ysunar edi. Napoleon Parijda Yevropadagi muhim tarixiy hujjatlar markazini tashkil etmoqchi edi. Imperator sena daryosi bo‘yida maxsus katta bino qudirishga buyruq berdi. 1810 yilda Napoleon hokimiyatdan ketgandan so‘ng binoning faqatgina poydevorini qurishga ulgurgan edi. Ushbu g‘oya yevropa mamlakatlari uchun qimmatga tushdi. Ayniqsa Vatikan arxivi, Ispaniyadagi Simankas arxivi katta talofot ko‘rdi. Ularning tarkibidagi hujjatlarni Parijga

yetkazishda ko‘pgina yo‘qotishlarga uchradi. Keyinchalik Vena shartnomasiga muvofiq bu hujjatlarni egasiga qaytardi, lekin ularning ko‘pgina qismi Fransiyada qolib ketdi.

1796 yilda Fransiyada distriktlarga bo‘lininsh masalasi bekor qilindi. Departament arxivlari tashkil etilgandan so‘ng Direktoriya ularga e’tibor qaratmadı, ya’ni arxivlarni markazlashtirishga e’tibor qaratmadı.

1839 yilda Departament arxivlarida hujjatalrni saqlash haqida ko‘rsatma, 1841 yilda ularni klassifikatsiya qilish haqida ko‘rsatmalar qabul qilindi.

1841-1842 yillarda kommunal va gospital arxivlar haqida ko‘rsatmalar qabul qilindi. Ikkala arxivlar ham Departament direktoriga bo‘ysunar edi.

Arxivda inqilob davridagi muhim hujjatlar ham jamlangan edi. Inqilobdan keyin arxivni butlashda o‘zgarishlar bo‘ldi. Unga Ichki ishlar vazirligi o‘z hujjatlarini topshirdi.

XIX asr boshlarigacha bo‘lgan hujjatlar ma’lum bir tartibda joylashtirildi. Ushbu tizimni tashkil etish ishlarini Komyuz boshlagan bo‘lsa, uni arxivchi uning joyiini egallagan Donu nihoyasiga yetkazdi.

Ushbu tizim XVII- XVIII asr arxivchilari ananasiga ko‘ra tashkil etilib, unda mavzuli guruhlar, guruhlar qoshida seksiyalar sifatida tashkil etildi. Ular 6 tani tashkil etdi:

1. Qonuniylik
2. Ma’muriy
3. Tarixiy
4. Topografik
5. Dominial
6. Huquqiy

Seksiyalar ichida hujjatlar yanada kichik guruhlarga ya’ni seriyalarga bo‘linar edi. Seriyalar shunaqa ko‘p ediki ularga hatto harflar ham yetmas edi va ular ikkitalik, uchtalik harflar bilan ham belgilandi. Ushbu klassifikatsiya XVIII asr oxiri XIX asrda eng mashhur bo‘lgan bo‘lsada, uning salbiy oqibatlari ham bor edi. Masalan Xartiya xazinasi kabi noyob kolleksiya bitta kichik seriya tarkibiga kiritilgan edi.

Arxivlarni butlashda jiddiy muammolar kelib chiqdi. Bunga 1830, 1848, 1871 yillarda inqiloblar ham katta sabab bo‘ldi. Har bir yangi hukumat vakili o‘zidan oldingi o‘tmishdoshlari hujjatlarini arxivga topshirdi. Ayniqsa 1848 yilda arxiv Direktoriya hujjatlarini, Burbon va Orlean dinastiyasi hujjatlarini qabul qilib oldi.

Keyinchalik hukumat Markaziy organlarning muomaladan chiqqan hujjatlarni topshirishni buyurdi. Shundan so‘ng Ichki ishlar vazrligi, maorif vazirligi, sanoat va savdo vazirligi, statistika organlari hujjatlarini topshirdilar.

### 3. XIX asr ikkinchi yarmida arxiv islohotlari va arxiv maktablari faoliyati

Shu tarzda davlat arxivlari turli bosqichlarni bosib o‘tdi. Ular bir biri bilan bog‘liq emas, chunki ular turli idoralar bo‘sunar edi. Milliy arxiv bo‘ysunadigan bosh yuqori organ vaqtı-vaqtı bilan almashib turdi.

1870 yilda arxivlar Maorif va sa’nat vazirligiga bo‘ysundirildi, 1884 yilda Fransiya davlatidagi arxivlar va tarmoqlari boshqarish haqida qonunlar chiqarildi.

Maorif vazirligi qoshida Arxiv bosh boshqarmasi tashkil etildi. Arxiv boshqarmasida:

1. Oliy arxiv komissiyasi-bu Kengash organi bo‘lib, unda arxivlardan, vazirliklardan, ilmiy muassasalardan vakillar qatnashib, arxiv sohasidagi turli masalalarni hal etar edi.

2. Arxiv inspeksiyasi bo‘lib mahalliy arxivlar ustidan nazorat olib borar edi. Arxiv boshqarmasi Milliy arxivga departament va boshqa arxivlar bo‘ysundirildi.

Lekin bu faqat qisman markazlashtirish edi. Mahalliy arxivlarga hohlovchilar har qanday paytda tarixiy hujjatlarni topshirishda davom etdi. Ko‘pgina arxiv hujjatlari idoraviy arxivlarda qolib ketdi. Masalan tashqi ishlar vazirligi, harbiy ishlar vazirligi va boshqalar. Idoraviy arxivlar arxiv organlariga umuman bo‘ysunmas edi. Ularni bo‘ysundirishga qilingan harakatlar bekor ketdi. Faqatgina tarixiy arxivlar markazlashtirildi, ammo to‘liq emas.

Parijdagi Milliy kutubxona, Arsenal kutubxonasi, Sa’nat va arxeologiya kutubxonasi qo‘yozma hujjatlariga juda boy hisoblanar edi. Ushbu qo‘lyozma hujjatlarni milliy arxiv tarkibiga o‘tkazish borasida ko‘pgina ishlar qilindi, ammo biroor natija chiqmadi.

XIX asr o‘rtalarida barcha davlat arxivlarida bir xil strukturada tuzildi. Hujjatli materiallar seksiyalarga bo‘lindi.

1. Eski tuzum hujjatlari 1789 yildan
2. Yangi tuzum hujjatlari

Ikkinchchi seksiya hujjatlariga faqatgina 50 yildan keyin foydalanishga ruxsat berildi. Milliy va mahalliy arxivlarda maxsus ko‘rsatmalar asosida ko‘pgina opislar tuzildi. G.Bordening “Arxivo‘ Fransii” putevoditeli (1855 yil) Fransuz tarixiy arxivlari tomonidan ham tuzldi.

Arxeografik ishlar tarixchilar, ilmiy jamiyatlar va muassasalar tomonidan amalga oshirildi. Hujjatlarin nashrga tayyorlash yangi davr konsepsiyalari asosida amalga oshirildi.

Fransiya yetarli darajada arxiv tizimi shakllangan so‘ng kutubxonalarda, ko‘pgina muassalarda, idoralarda hujjatlarin tartibga solish boarsida kadrlarga extiyoj ortib bordi. Bunday ta’limni fransuz arxivchilari Parijdagi xartiya maktabidan olishgan. Ushbu o‘quv muassasa o‘zinig oldiga arxivchilarni yetishtirishni maqsad qilib olmagan edi. arxiv materiallarini o‘rganishda ularga ma’lumotnomma apparati kabi hujjatlarni topish ni osonlashtiruvchi kadrlar zarur edi. Buning uchun arxivlardagi qo‘lyozmalar ustida ishlay olishi, kutubxona va arxiv ishi bilan tanish bo‘lishi va maxsus tarix fanlarinin yaxshi bilishi lozim edi.

Arxiv ishining rivojlanishi va hujjatlar ustida ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi natijasida kadrlar tayyorlash masalasi shakillandi. 1821 yilda tashkil etilgan “Xartiyalar maktabi” arxivchilar taylorlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘quv muassasasida o‘quv jarayonlarini tashkil etish ishlari birinchi marta 1821 yilda amalga oshirilgan. Yozuvchilar akademiyasi qoshida tashkil etilgan “Xartiyalar maktabi” 2 yil o‘z faoliyatini davom ettirdi. 1828 yilda Maktab o‘z faoliyatini juda tor doirada davom ettirib, “shartistlarga” faqatgina poliyografiya va

diplomatika fanlaridan ta’lim berildi. Shu davrda arxivlar bilan maktab o‘rtasida bog‘liqlik paydo bo‘ldi. Milliy kutubxonadan va arxivdan mutaxassislar chaqirtirilib darslar tashkil qilindi. Bitiruvchilarga “Arxivist-polegraf” mutaxassisligi berilib, ular Milliy kutubxonada va qirollik arxividagi ishlashi mumkin edi. Ammo departament arxivlari ustidan islohatlar o‘tkazilgandan so‘ng arxivchi-paleograflar mehnatidan keng foydalanildi. Arxivchilar maktabi bilan aloqalar kuchaydi.

1850-1859 yillarda Xartiya maktabini tugatganlar departament arxiv direktori yoki arxiv boshqarmasining bosh inspektori lavozimida ishlash mumkin edi. Ularni katta-katta shahar arxivlariga taklif eta boshlashdi.

1846 yilda kadrlarga yanada extiyoj oshdi, maxsu tarix fanlarining ahamiyati ortib bordi va o‘quv jarayonlarini isloh qilish bilan mustaxkamlandi. 1869 yilda yangi o‘quv rejalarini ishlab chiqildi.

Xartiya maktabining tashkil etilishi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. U Fransuz arxiv madaniyatining tashkil etishda muhim rol o‘ynadi. U yerda egallangan bilimlar asosida ko‘pgina opislar tuzildi. Xartiya maktabi tajribasi asosida boshqa Yevropa davlatlari o‘quv muassasalari tashkil etilishiga asos bo‘ldi.

**I-jahon urushidan so‘ng** ko‘pgina harbiy hujjatlarning yig‘ilib qolishi natijasida yangi arxiv turlari, ya’ni harbiy arxivlar ko‘paydi. 1919 yilda tashkil etilgan Umumgermaniya arxividagi I-jahon urushidagi mag‘lubiyatidan so‘ng fashistlar Germaniyasi harbiy hujjatlarga e’tibor qaratib, ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

II-jahon urushidan so‘ng ko‘pgina davlatlar, ayniqsa Sharqiy Yevropa arxivlariga katta zarar yetdi. Varshava arxivlarining 90% arxivlari yo‘q bo‘lib ketdi. Pragadan Germaniyaga 18000 tom hujjatlar olib ketildi. Germanianing o‘zida ko‘plab hujjatlar yo‘q bo‘lib ketdi, Italiyaning arxivlariga katta zarar yetdi.

Urushdan so‘ng sobiq SSSR harbiylari tomonidan mag‘lubiyatga uchragan fashistlar tomonidan o‘z jinoyatlarini yashirish maqsadida yo‘q qilish chun rejalashtirilgan hujjatlar saqlab qolinib Germaniya hukumatiga topshirilgan. Bundan tashqari, sobiq SSSR harbiylari tomonidan Polsha, Chexoslavakiya, Ruminiya, Vengriya, Fransiya davlatlari arxiv hujjatlari ham saqlanib qolinib uz egalariga qaytarib berilgan.

1949-1957 yillarda Albaniya, Bolgariya, GDR, Polsha, Ruminiya, Chexoslavakiya davlatlarida arxivlarni markazlashtirish borasida islohotlar o‘tkazildi. Barcha davlatlarda yagona arxiv tizimi joriy qilindi. Muzeylarda, kutubxonalarda saqlanayotgan arxiv hujjatlari Davlat Arxiv Fondlari tarkibiga kiritildi. Hujjatlarin tuplamlashtirish va saqlash asoslari yaratildi. Joylarda arxiv boshqarmalari tashkil etilib, ularga barcha arxivlar bo‘ysundirildi. Ba’zi davlatlarda Markaziy arxivlar boshqatdan tashkil etildi (Masalan, Bolgariyada). Tarixiy, inqilobiy hujjatlarga katta e’tibor qaratildi. GDRda natsionalizatsiya qilingan yirik korxonalar arxivlari hisobiga iqtisodiy arxivlar shakllandi. 1953 yilda Vengriyada Iqtisodiy arxiv tashkil etildi. Hujjatlarni mikrofilmlashtirish keng yo‘lga qo‘yilda, aynan GD va Chexoslavakiyada. Barcha davlatlarda arxiv institutlari, universitetlarda arxivshnoslik bo‘limlari tashkil etildi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. So‘nggi o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida arxiv ishida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. Sharqiy Yevropada so‘nggi o‘rta asrlar davrida arxivlar faoliyat xususida so‘zlab bering.
3. Yangi davrda Yevropada kechgan tarixiy voqealar arxiv ishiga qay tarzda ta’sir o‘tkazdi? Misollarda yoritib bering.
4. Yevropa mamlakatlarida arxiv sohasida amalga oshirilgan islohotlar to‘g‘risida ma’lumot bering, ularning arxivlarning taraqqiy etishiga bo‘lgan ta’sirini faktlar asosida aniqlab bering.
5. XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarida arxiv ishi holati qanday bo‘lgan?
6. Birinchi jahon rushidan keyingi yillarda Yevropada arxivlar faoliyati tarixini yoritib bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Карапетнс И.В. Економический архиви Западной Йевропи и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
2. Бржостовская Н.В. Архиви и арх. дело в зарубежных странах. М.: АСТ, 2012. 211 с.
3. Клейе-Мишо Р. Архивнойе дело во Франции. – М.:РИПОЛ, 2011. 101 с.
4. Алексеева ЙЕ.В., Афанасьева Л.П., Бурова ЙЕ.М. // под редакци профессор Козлова В.П., Архивоведенийе. – М.: ПрофОбрИздат, 2002.
5. Калсина ЙЕ.А. Французскойе архивоведенийе: история, теория, методология (конец XIX века - XX век). М.: РГТУ, 2014. 26 с.

### 3 - mavzu: ROSSIYADA ARXIVLARNING RIVOJLANISHI

#### **PEЖA:**

- 3.1. Rossiyada arxivlarning paydo bo‘lishi, ilk hujjatlar va ularning trulari.
- 3.2. XVI-XVIII asrlarda Rossiyada arxiv ishining yuritilishi.
- 3.3. XIX asrda Rossiyada arxivlar faoliyati.

**Tayanch iboralar:** ilk arxivlar, arxiv hujjatlar, yozuv, berest yorliqlari, hujjat turlari, arxivlar tasnifi, o‘rta asrlar, Rossiya arxivlari, islohot.

Qadimgi Rus davlati (9-12 asr boshi) ilk feodal monarxiya davlati edi. Davlat boshida Kiyevning buyuk knyazi turgan. Uning aka-ukalari, o‘g‘illari va amaldorlari mamlakatni, sud tizimini va soliqlar yig‘ishni boshqarishgan. Qadimgi rus davlatining asosiy vazifalari tashqi chegaralarni ximoyalash, mamlakat ichida tartib o‘rnatish, halqaro savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish edi. Bu haqda Rusning Vizantiya bilan 911, 944, 971 yillardagi imzolagan shartnomasi guvohlik beradi.

Knyaz saroyida hujjatlar to‘planib saqlanar edi. Ular Knyazlikning Vizantiya bilan shartnomasi, knyaz yorliqlari, sud qarorlari, diniy va boshqa hujjatlar saqlanib qolgan.

11-12 asrlar chegarasida qadimgi rus davlati ayrim mustaqil davlatlarga parchalanib ketdi. Bu davlatlarning barchasi ba’zi xarakterli xususiyatlarga: qo‘sish, asosiy siyosiy kuch sifatida knyaz va shahar vechesiga ega edi. Bu davrdagi davlatlarni shartli ravishda 3 ta turga bo‘lish mumkin: ilk feodal monarxiya, feodal respublika, despotik monarxiY.

Feodal xukmronlik davri vujudga kelishi natijasida o‘z davrida Kiyev knyazligida hujjatlarning ko‘pgina turlari vujudga kela boshladi. Knyazliklar o‘rtasida kurash natijasida o‘zaro shartomalar bekor kilindi. Bizgacha ko‘shni Smolensk knyazligi, Polots yerlari, Novgorod, Pskov bilan bo‘lgan yozishmalar yetib kelgan.

Boshqa yerlardagi hukmdorlarning taklif etilishi alohida hujjatlarda ruyxatga olingan. Arxiv hujjatlari siyosiy kurashlarda foydalanilgan. Knyazliklar vakolatlari yorlik ustavlari orqali aniqlangan. Eng ko‘p rasm bo‘lgani knyazliklarga berilgan shikoyat yorltklaridir. O‘sha paytlarda knyazlik va monastr arxivlari rivojlandi. Arxivlar kisman Novgorod Sofiya ibodatxonasi, Kirilla-Belozerskiy, Grotsse-Sergeyev, Solovetskiy va boshka monastrlarda 375 dan ortik berestalarda bitilgan yorliklar topildi. Ularning eng kadimiysi XI-XII asrlarga tegishli. Qayin pustlog‘iga bitilgan yorliqlar XI-XV asrlarda rus yerlarida xat-yozuvni keng doirada

rivojlanganidan dalolat beradi va shu bilan birga arxivlar faqatgina boy feodallar va savdogarlarda emas balki ba’zi bir hunarmand kosiblarning ham o‘z arxivlari bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ammo maxsus hujjatlar Saroy va monastrlarda saqlangan. Troitskiy ibodatxonasi (Pskov) arxividaxalk yig‘ini qarorlari, ruxoniylar kengashi qarorlari, diniy marosimlar, oldi-berdi tilxatlari, fuqarolarning to‘lov tilxatlari va boshqa hujjatlari saqlangan. Hujjatlar pergamentlar, beresta, yog‘och doskalarda, XIV asr o‘rtalaridan keyingi davrga oid hujjatlar esa qog‘ozlarda yozilgan.

Rusiya shimoliy g‘arbida feodal respublika: boyar yoki aristokratik (Novgorod, keyinchalik Pskov) deb ham ataladi. Bunda barcha amaldorlar veche (majlis) da saylanadi (yepiskop, lashkarboshi, knyaz faqat harbiy masalalar bilan shug‘ullangan).

Kiyev Rusida knyaz faoliyatini knyaz saroyi amalga oshiradi. Aynan bu yerda davlat devonxonasi-g‘azna bo‘lib, Kiyev knyazlari faoliyatining barcha sohalari to‘g‘risidagi hujjatlarni ko‘rib chiqan. Joylardagi (shaharlardagi) knyaz xokimiyyati vakillari-amaldorlar sud va ma’muriy vazifalarni bajarganlar. Ularning faoliyati davomida yozilgan hujjatlar ibodatxonalarda saqlangan.

Russiyada xristianlik qabul qilinishi bilan (988 yil) cherkov davlat va jamiyat hayotida muxim rol o‘ynadi. Cherkov va monastirlarda xazinalar tashkil etilib, ularda kitoblar, knyazlar yorliqlari ham saqlangan.

Bizning davrimizgacha saqlanib qolgan shikoyat yorliqlaridan biri buyuk Kiyev knyazi Mstislav Vladimirovichning Novgorod knyazi Yuryevga bergen yorlig‘idir. Uning sanasi 12 asrning boshi hisoblanadi.

Monastirlarda kitoblar yozilib, ularni “bilimdonlik manbalari” deb atashgan. Kitoblar qimmat bo‘lib, ular pergamentdan qilinib, rangli miniatyurlar bilan bezatilgan. Rus davlatida diny adabiyotlar keng tarqalgan. Ularda odamlarning hatti xarakatlari, hayoti aks ettirilgan. XI asrda birinchi tarixiy asarlar-yilnomalar paydo bo‘lgan. Afsuski, bizgacha IX- asrlarga mansub bo‘lgan qo‘lyozmalar kam sonda yetib kelgan. (130 ta nusxadan ko‘proq).

Feodal knyazliklar va respublikalar nafaqat qadimgi rus davlati hujjat materiallari vorisi bo‘ldi, balki o‘zlari ham yangilarini yaratdilar. Masalan, feodallarning (boyarlar, cherkov) jamoa yerlarini bosib olishiga qarshi knyazlarga yozgan shikoyat yorliqlari saqlanib qolgan. Knyaz sudi va boshqaruvi jarayonidagi sud bayonnomalari, hukmlari va boshqa hujjatlari ham saqlanib qolgan. Knyazlar o‘rtasidagi kurashlar natijasida tuzilgan shartnomalar ham saqlangan.

Boshqa davlatlar bilan aloqalar ham kengaydi. Masalan, Novgorod, Pskov, Polotsk, Smolensk, Vitebsk Boltiq bo‘yi nemis shaharlari savdo kompaniyalari bilan shartnomalar tuzganlar. Ayniqsa, XIII asrdagi nemis-shved agressiyasidan so‘ng savdo shartnomalaridan tashqari diplomatik kelishuvlar ham imzolangan.

Cherkov ba’zi sud vazifalarini ham bajargan. Bu jarayonda ko‘pchilik sud hujjatlari cherkovda jamlangan. Ish hujjatlaridan tashqari, cherkov va monastirlarda qo‘lyozma va kitoblar ham to‘plangan bo‘lib, keyinchalik qayta ko‘chirilgan. Kitoblarni ko‘chirish bo‘yicha ishlar shartnomaga va buyurtma bo‘yicha olib borilgan. Ish yuritish ishlarini oliy ruhoniylar rahbarligida cherkov xizmatchilari-diak

(munshiy) lar olib borganlar. Yagona ish yuritish ishlarini olib borishni ta'minlash maqsadida hujjatlar namunalari ishlab chiqildi. Cherkov hujjatlari rus provaslov cherkovida – mitropolit va yepiskoplar, monastir hujjatlari- monastir cherkovlarida saqlangan.

Markaziy davlat vazifalari murakkablashishi va kengayishi bilan buyruqlarning miqdori ham doimiy o'sib borgan. XVI asrda cherkov tashkilotlarida katta o'zgarishlar bo'ldi. 1589 yilda patriarchlik-provaslav cherkovida oliv hokimiyat ta'sis etildi. XVI asrda patriarch qoshida o'z amaldorlariga ega alohida saroy vujudga keldi. Bu organ orqali patriarch cherkov ishlari va mulklerini boshqargan. Cherkov va monastir arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarni shartli ravishda ikki guruxga: diniy va xo'jalik hujjatlariga bo'lish mumkin. XVII asr boshida polyak-litov va shved intervensiysi natijasida cherkov arxivlari jiddiy shikastlandi. Shuning uchun bu davrdagi hujjatlarni ularning saqlanib qolgan nusxalari orqaligina bilishimiz mumkin. Rus markazlashgan davlati arxiv ishlari tarixi uchun podsho yoki davlat arxivi muhimi ahamiyatga ega bo'lib, u XVI asrda hujjatlarni saqlov idoralari orasida muhim o'rin egallab, hujjatlar ustunlarga yopishtirilgan holda saqlangan. Bu arxiv ishlariga duma dyaklari boshchilik qilishgan. Arxiv hujjatlari maxsus qutilarda saqlangan. Ular kitoblar, daftarlar va boshqa hujjatlar edi. Arxivlardagi materiallarni shartli ravishda ikki guruxga bo'lingan:

1. Buyuk knyaz va udellardagi knyazlar diniy yorliqlari
2. Davlat muassasalarini jarayonida vujudga kelgan (davlatning ichki va tashqi siyosati bo'yicha hujjatlar) hujjatlar

Podsho arxivida XIV asrdan boshlangan hujjatlar saqlanib, ta'sis etilgan muassasalar va XVI asrga oid hujjatlardir. XVI asr oxiridagi podsho arxividagi ko'pchilik hujjatlar elchilik buyruqlari arxiviga o'tkazildi. XVII asr boshida (xujumlar davrida) podsho arxivi tarkibiga kirgan hujjatlar harbiy intervensiya natijasida shikastlandi. Mahalliy o'zini boshqaruvchi organlarda saqlanayotgan hujjatlar mahalliy muassasalarda jamlandi. Guberniya hujjatlari guberniya devonxonasi, provinsiyadagi hujjatlar-provinsiya devonxonalariga, ue'zdagi hujjatlar-ue'zd devonxonalariga o'tqazildi. 1721 yilda dunyoviy amaldorlar boshchiligida Senat tashkil etildi va cherkov davlatga bo'ysundirilib, davlat apparatining bir qismiga aylantirildi. Senat, Vazirlar Mahkamasi, Oliy mahfiy kengash va hokimiyatning boshqa oliy o'rganlaridagi hujjatlarda XVIII asrdagi ichki va tashqi siyosat, saroy to'ntarishlari ma'lumotlari aks ettirilgan. Shuningdek u yerda imperator va imperatritsanining shaxsiy hujjatlari saqlangan. 1700-26 yillarda ustun shaklidagi ish yuritish bekor qilindi.

Pyotr I olib borgan davlat islohotlari natijasida arxivlar davlat muassasalarini devonxonalaridan ajratib, mustaqil bo'limlarga aylandi. 1720 yilga General Reglamentda belgilanganidek muassasalar o'z hujjatlarini belgilangan muddatda arxivlarga topshirishi kerak edi. XVIII asrning I-choragiga kelib davlat apparatining Pyotr I tomonidan boshqatdan tashkil etilishi natijasida Arxivlar Senat va Kollegiya (Markaziy boshqaruv organi vazirlik) qoshida tashkil etilgan. Boshqa arxivlar hujjatlari tarixiy arxivlarga joylashtirildi.

Birinchi tarixiy arxiv «Posolskiye Prikazi» arxivi hujjatlari asosida 1724

yilda «Qadimiy davlatlar hujjatlari bosh arxivi» Tashqi ishlar Markaziy boshqaruv organi nomi bilan almashtirildi.

Keyinchalik, 1780 yil ikkinchi tarix arxivi S.Peterburg davlat eski hujjatlar arxivi tashkil etildi. 1782 yil Moskva davlat eski hujjatlar arxivi tashkil etildi.

Rassomchilik Akademiyasi arxivi. Arxivning kutubxona, qo‘lyozma hujjatlar bo‘limi bilan birgalikda keyinchalik Moskva Universiteti qoshida tashkil etildi.

Inspektorlar Departamenti bosh shtabi. 1819 yil umumiy arxivlarning Moskva bo‘limi tashkil etildi, unda XVIII asrdagi harbiy o‘quv yurtlari va harbiy bo‘limlar hujjatlari saklangan.

1834 yil Tashqi Ishlar vazirligi qoshida «Rossiya imperiyasi davlat arxivi» tashkil etildi. Unda «Sarizm» ning XVIII-XIX asrlarda inqilobchilarga qarshi kurashdagi maxfiy hujjatlari saqlangan. Ushbu arxivga Moskva Tashqi Ishlar Markaziy boshqaruv ham qo‘sib yuborildi.

1852 yil 4 ta tarixiy arxiv tashkil etildi.

- 1.Moskva Adliya Vazirligi arxivi
- 2.Senat qimmatli hujjatlar arxivi
- 3.Pomestno-Votchina arxivi
4. Davlat qadimiy hujjatlar arxivi

1867 yilda Bosh shtabning «harbiy-ilmiy» arxivi tashkil etildi. Unda kartalar to‘plami, harbiy rejalar, harbiy-operativ hujjatlar, chizmalar kabi hujjatlar saqlangan.

1775-85 yillardagi davlat organlari islohotlari natijasida va Yekatrina II (1762-96) hukmronligi davrida mahalliy muassasalar va arxivlar soni o‘sdi. Mamlakatda 50 ta guberniyaga bo‘lindi (23 ta oldingi guberniya bilan birga). Provinsiyalar tassis etildi. Moskva va Sankt-Peterburg poytaxt guberniyalari bo‘ldi. Guberniyalar boshida gubernator turib favqulotda katta vakolatlarga ega edi.

Yekatrina II kiritgan davlatning ma’muriy bo‘linishi amalda 1917 yilgacha saqlanib qoldi. XVIII asr oxirida Pavel I (1796-1801) hukmronligi davrida qayta tiklangan hujjatlar muassasalar bo‘yicha tartibga solindi.

Ko‘plab hujjatlar ayniqsa Moskvadagi hujjatlar 1812 yildagi urush natijasida yo‘q bo‘lib ketdi. Masalan, tashqi ishlar kengashi hujjatlari, senat, pomestye-votchina va meje arxivlari fransuzlar tomonidan yo‘q kilib yuborildi. Bu hujjatlarni tiklash ishlari keyingi yillarida sekin kechdi. XIX asr boshida harbiy vazirlikda ikkita tarixiy arxiv: harbiy-topografik depo (keyinchalik harbiylar arxivi nomini oldi) va Inspektor departamenti Moskva bo‘limi (keyinchalik Bosh shtab arxivi nomini oldi) tashkil etildi. Chet el davlat arxivi bilan birga 1834 yil iyunida Tashqi ishlar vazirligi davlat arxivni tuzildi. 1852 yilda Adliya Vazirligi davlat arxivi (AVDA) tuzildi. Keyinchalik u barcha arxiv ishlari o‘ziga xos uslubiy markaziga aylandi. 1861 yilda krepostnoy huquqi bekor etilgandan so‘ng joylarda boshqaruvni isloh etish masalasi ko‘ndalang turdi. 1864 yilda guberniya doirasida hokimiyatning saylov organlari tuzildi. 1874 yildagi sud isloxati sudlarni ma’muriyatdan mustaqil deb e’lon qildi. Sud xukumat tomonidan saylanadigan bo‘ldi. Rossiya sud tizimining isloh etilishi maxsus sud organlari tuzilishiga olib keldi. Bu o‘zgarishlar mamlakatdagi arxivlar sohasida ham olib borildi.

1872 yilda Moskva saroy arxivi tuzildi. Qurolli palatadagi barcha hujjatlar uning tarkibiga kiritildi. 10 yildan keyin 1882 yilda Sankt-Peterburgda shunday arxiv tuzildi. 1888 yilda bu arxivlar Saroy vazirligi arxiviga birlashtirildi. Shunday qilib, 19 asr II choragidan bir qator muxim vazirliklar yagona arxivlar faoliyatini tashkillashtirdi. Mahalliy boshqaruv organlaridagi arxivlar faoliyati murakkab edi. Masalan, imperator Pavel I (1796-1801) boshqaruvi davrida 1798 va 1800 yillarda 2 ta farmon chiqdi: Unga ko‘ra har bir guberniya 3 ta arxiv: guberniya, sud palatasi va kazna palatasi qoshida tuzishi kerak edi. 19 asr boshidagi boshqaruv islohotlari davrida provinsiyalarda arxiv tuzish masalasi ko‘rildi. 1820 yilda xar bir mahalliy muassasalarda arxivlar tuzilganini e’lon qildi.

Birinchi jahon urushi yillarida (1914-18) ko‘plab arxivlar yo‘qolib ketdi yoki o‘z vaqtida ko‘chirilmadi. Mamlakatda arxiv ishlariga e’tibor va ehtiyoj kamaydi. 1917 yil mart oyida podshoh Nikolay I hokimiyati ag‘darilgandan keyin davlat hokimiyati amaldorlari hokimiyat to‘g‘risidagi hujjatlarni yo‘q qildilar. Sud va politsiya muassasalari arxivlari yo‘q qilindi. Muhim davlat ahamiyatiga molik hujjatlar yo‘qqa chiqarildi. Inqilobgacha Rossiyada arxivlarning aksariyat tarmog‘i shakllanib, ularni nazorat qiladigan yagona organ bo‘lmagan, ular turli idoralarga bo‘ysungan. 1917 yilgacha bo‘lgan Rossiyada garchi olimlar tomonidan hukumatga takliflar kiritilgan bo‘lsada, arxiv ishlari markazlashtirilmadi.

Rus yerlarining Moskva atrofida birlashtirilishi knyazlik arxivlarining «Sarskiy arxiv» ya’ni podshox arxivni tarkibiga kiritilgan. Saqlanib qolgan opislarning 240 tasi yog‘och qutilarda saqlangan. Hujjatlar tarkibida Tver, Ryazan, Smolensk, Chernigov, Yaraslov va boshqa knyazliklar hujjatlari aniqlangan. Ular XVI asrning II-yarmiga tegishli bo‘lib, rus davlatining ichki boshqaruv hujjatlari va g‘arbiy Yevropa va sharq davlatlari bilan aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga boy hisoblanadi.

XVII asr boshlarida Polsha va Shvetsiya intervensiyasida «Sar arxivini» ma’lum qismi Polshaga olib ketilgan. Qolgan qismi esa «Posolskiy Prikazi» arxiviga topshirilgan.

Ulardan eng kattalari Posolskiy, Razryadniy va Pomestnoy arxivlari. “Posolskiy Prikazi” arxivida Rossiya davlatining G‘arbiy, Sharkiy Yevropa, nemis knyazliklari, Angliya, Fransiya, Gollandiya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Italiya davlatlari, Xitoy, Eron, Xindiston, Indoneziya, Turkiya, O‘rta Osiyo xonliklari bilan olib borilgan diplomatik savdo aloqalari haqidagi ma’lumotlarga boydir. “Posolskiye Prikazi” arxiv XVI asrning o‘rtalarida paydo bo‘lganbo‘lib, arxivdagi hujjatlar XV asrning I-choragidan XVIII asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga qamrab oladi.

“Razryadniye Prikazi” arxivи XVI asrning I-yarmida tashkil etilgan bo‘lib, unda XVI asrdan XVIII asrgacha bo‘lgan hujjatlar mujassamlashgan. Arxivda Boyarlar kitoblari (Boyarskiye knigi) -ruyxatlari, noyob kitoblar, harbiy faoliyat to‘g‘risidagi hujjatlar saqlangan.

“Pomestniye Prikazi” - arxivи XVI asr o‘rtalarida tashkil etilgan. Unda feodalizm va dexqonlarni krepostnoylashtirishga oid hujjatlar shu bilan birga kitoblar hujjatlari, ro‘yxatga olish, inkor xatlari, arizalar, yer sotish va almashtirish,

qochib ketgan qullarning qidirilishi haqidagi hujjatlar mavjud.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Knyazlikda boshqaruв tizimi qanday shakllangan edi?
2. Petr I davrida arxiv borasida qanday islohotlr olib borildi?
3. Rossiyada 19 asr ikkinchi yarmidan keyin qanday davlat arxivlari tashkil etildi?
4. Pavel I davrida arxiv sohasida qanday islohotlar olib borildi?
5. “Posolskiy Prikazi” , “Razryadniye Prikazi” , “Pomestniye Prikazi” arxivlari haqida internet saytlari asosida to‘liqroq ma’lumotlar to‘plang?

### **Adabiyotlar:**

1. Алексеева Й.Е.В., Афанасьева Л.П., Бурова Й.Е.М.// под редакцией профессор Козлова В.П., Архивоведение. - М.: Профобраздат, 2004.
2. Козлов В.П. Российской архивной дела. Архивно-источниковедческие исследования - М.: ТЕРМИКА, 2004.
3. Очерки по истории архивного дела в СССР ,ч.1,2 изд., М, 1960
4. [www.apchive.ru](http://www.apchive.ru)

## 4 - mavzu: AQShda ARXIVLARNING TARAQQIY ETISHI

### ***REJA:***

- 4.1. AQShda arxivlarning o'rta asrlarda shakllanishi.*
- 4.2. Yangi davrda AQSH arxivlari turlari va faoliyati.*
- 4.3. XX asrda Amerikada arxiv ishining holati.*

**Tayanch iboralar:** AQSH arxivlari, arxiv turlari, tasnif, arxiv materiallari, industrial davr, mustamlaka, arxivlar faoliyati.

Shimoliy Amerika Ko'shma Shtatlarida arxiv ishi boshqacha rivojlandi. Bu yerda mustaqil davlatlar Lotin Amerikasiga nisbatan ancha ilgari paydo bo'lgandi va ular markaziy arxivga ega bo'lmanalar. Bunga qator omillar sabab bo'lgan. Avvalo, bu yerda mustaqillik uchun urushdan so'ng katta merosiy xujjatlarni tashkillashtirish muammosi vujudga kelmagan. Shimoliy Amerikadagi Angliya koloniysi nisbatan yosh bo'lib, fuqarolik ishlari bilan ancha kam shug'ullangan. Angliyaning kolonial hukumronligi davrida koloniyalarni boshqarish u darajada markazlashmagan bo'lib yagona byurokratik papparat mavjud emasdi. 13 ta koloniyaning har biri o'zining tuzumi va boshqaruva shakliga ega edi. Ma'muriy faoliyat mahalliy xarakterga ega bo'lgan. Shuning uchun ham ulardan Lotin Amerikasi vitse qirollariniki kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ko'p miqdordagi xujjatlar qolmagan. Boshqa tomondan, mustaqillik urushidan so'ng bu yerda federal tartiblar qabul qilinib, xar bir shtat o'z ichki ishlarida sezilarli avtanomiyani saqlab qolgan ediY. Shtatlarda senat, kongress kabi vakillik organlari va gubernator boshchiligidagi butun bir ijroiya tarmog'i shakllantirilgan. Har bir shtat ma'muriyati sobiq kolonial hukumat xujjatli materiallarini meros qilib olgan. Bu materiallarning bir qismi yangi muassasalarga o'tgan bo'lsa bir qismi tarixiy yodgorlik sifatida shtatlarning kutubxonalaridan o'rinn oldi. Shunday qilib AQShdagagi mahalliy arxivlar markaziy muassasalarini arxivlaridan qadimiyroqdir. Bu holat ayniqsa 17 asrda kolonizatsiyalash boshlangan. Janubiy Sharqiy shtatlarga xosdir.

Markaziy ahamiyatga ega bo'lgan materiallarni tizimlashtirish 1774-1789 yillardagi kontinental kongress faoliyati bilan bog'liq. O'sha paytda jamlangan materiallar 490 to'mni tashkil etadi. Konstitusiyaga ko'ra 1789 yilida AQShda Oliy va Markaziy muassasalar tizimi yaratildi, uning asosiy xususiyatlari bugunga qadar saqlangan. O'sha paytda ularning mahalliy organlari ham tashkil topadi. Qayd etilgan muassasalarda umumfederal ahamiyatga ega xujjat ishlari hal qilinadi. Dastlabki paytdarda Amerikaning Markaziy muassasa arxivlari qator noqulayliklarga duch keladi. Chunki 1800 yilga qadar Amerikada doimiy poytaxt mavjud emasdi. Nihoyat 1800 yilda xukumat o'zining barcha muassasalarini bilan Kolumbiya Okrugidagi Vashington shaxriga kelib joylashadi. Shu vaqt dan boshlab

doimiy arxiv muassasalari paydo bo‘ladi. 1-Jaxon urushiga qadar AQSH arxivlarini tashkil etishda idoraviy tizim to‘liq xukumronlik qilgan. Ularning qo‘liyatini muvofiqlashtiruvchi xech qanday markaz yo‘q edi. Kongress vaqtini bilan xukumat arxivlari xolatini nazorat qiluvchi komissiya tayinlab turgan. Bu komissiya arxivlari xavfsiz saqlash uchun maxsus bino qurish taklifi Bilan chiqqan. Bu taklif yetarlicha qo‘llab quvvatlandi. Faqatgina 1810 yilda Davlat Departamenti, harbiy va dengiz idoralari arxivlari yangi binoga ko‘chirildi. Keyinchalik bu kabi choralar o‘tkazilmadi. XX asr boshiga kelib bus ay harakatlar o‘z samarasini berdi.

Umuman olganda Arxivlarni tashkil etishda uch hil yondashuv mavjud:

1. Arxivlar va tarix departamentiga o‘xshash maxsus muassasa tashkil qilish va unga shtatning markaziy saqlash xonasini ham kiritish;

2. shtat muassasalarining eski materiallarini kutubxonalarga yoki maxalliy ilmiy jamiyatlarga berish;

3. shtat sekretari vazifasiga arxiv muassasalari ustidan nazorat qilish ham kiritilgan; shunday shtatlar xam bo‘lganki, xech qanday maxsus chora tadbirlar o‘tkazilmagan.

Nihoyat, AQSH federal hukumati ham arxivlarni qayta tashkil etish zaruratini tan oldi. 1913 yildan Kongress bir necha olimlarni Yevropa davlatlaridagi arxiv ishini o‘rganish uchun yuboradi hamda yong‘indan himoyalangan arxiv binosini qurish loyihasi tasdiqlangan. AQShning urushga kirishi bu loyihaning amalga oshishiga to‘sinqinlik qiladi.

Hozirgi kunda AQShda 3000 mingdan ziyod qo‘lyozma xujjatlar mavjud. AQShda federal arxiv tizimi joriy qilindi. Bugungi kunda 1000-1000 lab amerikaliklar Ushbu xujjatlardan foydalandilar. AQShda yagona arxiv tizimini joriy etish ishlari juda kech shakllandi. Ko‘pgina xujjatlar davlat departamentining tarixiy bo‘limida, Moliya vazirligida, harbiy idoralarda va boshqa davlat muassasalarida saqlanib kelingan.

1930 yilda Federal arxivda 3,5 mln fut dan ortiq hujjatlar yig‘ilib qolgan edi. Ulardan 600 fut doimiy saqlash uchun qabul qilingan edi.

1934 yilda iyun oyida Kongress qaroriga ko‘ra AQSH Milliy arxivini tashkil etildi. U mustaqil federal arxiv sifatida tashkil etilib, faqat AQSH kongressi oldida hisobot berardi.

1934 yilda qabul qilingan qonun arxivchilar ma’suliyatini oshirib milliy arxivga xukumat idoralarining xujjatini ilmiy-amaliy maqsadda foydalanish uchun uzoq muddatga ya’ni doimiy saqlash uchun barcha choralarini ko‘rish lozim.

1935 yilda Vashingtonda maxsus qurilish va jihozlarni arxiv binosi Milliy Arxiv ixtiyoriga topshirilib, idoralardan xujjat qabul qila boshladi.

1940 yillar ohrinda Milliy arxiv milliy ahamiyatiga ega bo‘lgan barcha arxiv fondlari o‘zida jamlab oldi.

1940 yillarda arxivlar faoliyatini tekshirib chiqqan Guver arxivlar boshqaruv tizimini federal umumiyl foydalanish hizmatiboshqarmasi tasarrufiga o‘tkazilishini taklif etadi va bu g‘oya amalga oshadi.

Ammo bu xolat milliy arxiv tizimining mustaqil faoliyat olib borishida va arxivlarning ilmiy tadqiqot markazi bo‘lib xizmat qilishda to‘sinqinlik qildi.

XX asrning 50-60 yillarida Milliy arxiv tizimini shakllantirishda bir qator qonunlar qabul qilindi. Zamonaviy federal arxiv tizimi juda murakkab tarzda edi. AQSH bosh arxivisti bevosita AQSH umumiy foydalanish hizmati boshlig‘iga bo‘ysungan. AQSH bosh arxivisti arxiv maslahat kengashining raisi bo‘lib, bu kengash arxiv tizimida xujjatshunoslikni qayta ishlash va ilmiy tadqiqot va boshqalarni olib borishda yordam berdi. Shu bilan bir qatorda Markaziy Arxiv faoliyatini ham boshqarib bordi.

AQSH arxivchilar bo‘limi mavjud bo‘lib, uning hodimlari bevosita bosh arxivistga bo‘ysungan. Hozirgi kunda Milliy Arxivda Shimoliy Amerikadagi va mustamlaka davlatlarning mustaqillik uchun kurashiga oid xujjatlar, federal muassasalar xujjatlari va boshqa turli hildagi xujjatlar. Maxsus guruxdagi xujjatlar to‘plamida umum xukumat xujjatlari, davlat departament iva davlat qonunchiligi xujjatlari, ularning AQSH konstitusiyasi va unga kiritilgan o‘zgarishlar, xududiy masalalar va boshqa masalalarga oid xujjatlar saqlangan. Bundan tashqari arxivda Halqaro arxivlarning asosiy nusxalari, prezident qarori va farmoiyshlari, AQSH kongressi va palatasi, Sud organlari, Oq uy xujjatlari, davlat byudjetiga oid prezident xujjati saqlangan. Arxivda ijro hokimiyati, mehnat, moliya, ichki ishlar, qishloq xo‘jaligi, pochta vazirliklari xujjatlari, Davlat departamenti tomonidan taqdim etilgan AQSH tashqi ishlar tarixiga oid diplomatik yozishmalar, elchixonalar xujjatlari saqlangan.

Arxiv xujjatlari haqidagi ma’lumotlar arxiv yo‘l ko‘rsatkichida jamlangan. Yangi qabul qilingan xujjatlar yilda 3 marta nashr etilgan «protokol» jurnalida nashr etib boriladi.

1950 yilda Markaziy Arxivning xujjatlarini saqlash maqsadida federal markazlar tashkil etila boshlandi. Shu yili Nyu Yorkda birinchi markaz ochildi. Bugungi kunda 12 ta shunday federal markazlar faoliyat olib bormoqda. Ular qoshida esa regional bshlimlar faoliyat olib boradi.

1940 yil Markaziy Arxivda 250000, 1960 yilda 912000, 1980-yilda 1,340000 kub fut xujjat saqlangan.

Arxiv ishi bo‘yicha AQSH da yagona tizim mavjud emas. Ko‘pgina shtatlarda mustaqil tarix arxiv boshqarmalari mavjud. Bu arxiv tarix-arkiv departamenti deb ham ataladi.

AQSH ning 7 ta shtatida arxiv xujjatlari bo‘yicha ma’sullik, davlat idoralari bo‘limi sifatidagi tarixiy jamiyatlar vazifasiga yuklatilgan. 3 ta shtatda arxiv ishi vazifasini tarix komissiyalariga, ba’zi shtatlarda esa xujjatlarni shtat sekretari yoki shtat kutubxonasi vazifasiga yuklatilgan. Ba’zilar o‘z xujjatlarini mahalliy arxiv idoralarda saqlash huquqi berilgan bo‘lsa, boshqalarida arxiv tashkilotlari, arxiv xujjatlarini yo‘q qilishga ruxsat berishi mumkin ekan.

Ba’zi shtatlarda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxslarning shaxsiy xujjatlarini nazorat qilsa ba’zilarida nazorat qilinmaydi.

60-70 yillarda AQSH ning ko‘pgina shtatlari arxiv ishini takomillashtirgan. Deyarli barcha shtatlarda arxiv ishini takomillashtirish, arxiv hizmatini tashkil etish, zamonaviylashtirish borasida ishlar amalga oshirilgan. 2- tadan bir qator shtatlarda Merlin, Illinoyes, Jorji, Nyu Djersi, Penselvaniya va boshqa shtatlarda yangi arxiv

binolari qurildi. Kutubxonalar, departamentlar, tarix arxivlari, ma'muriy binolar yaxshi jihozli bino sifatida ta'mirlangan.

3-tadan barcha alohida shtatlarda federal hukumat misolidagi xujjatshunoslar markazlarida tashkil etilgan va shtatlardagi arxivchilar hamda Markaziy Arxiv arxivchilari o'rtasida aloqa o'rnatgan.

Amerika arxivchilari jamiyati va uning o'rgani tashkil etildi hamda u Amerika arxivist deb nomlangan. Davlat arxiv hizmati tizimiga prezident kutubxonasi ham kiradi. Ushbu maxsus kutubxona AQSH prezidentlari va ularning yordamchilari xujjatlari saqlanib kelinmoqda. Ushbu kutubxona asosini Ruzvelt tomonidan Gayetparkda tashkil etilgan kutubxona bo'lgan. Ularning faoliyati 1955 yildagi Prezident kutubxonalari qonuniga ko'ra nazorat qilingan.

23 ta prezident xujjatlariga oid avtomatlashtirilgan xujjatlarning mavjud bo'limini topish mumkin.

Lotin Amerikasi arxiv ishi tarixi yirik siyosiy voqealar sabab o'zgarib ketdi. Mustaqillik uchun kurash natijasida Ispaniya va Portugaliyaning Amerikadagi koloniyalarda qator mustaqil davlatlar vujudga keldi. Bu davlatlar mahalliy kolonialxokimliklardan, ular tomonidan 300 yil mobaynida to'plangan yirik miqdordagi xujjatli materiallarni meros qilib oldi. To'g'ri, Amerika koloniyalari boshqaruviga oid materiallarning kata qismi metropoliyaga olib ketilgan, xususan Ispaniyada bu materiallar Oliy Hind kengashi va koloniya vazirligi arxivlarida jamlangan. Keyinchalik esa Seviliyadagi Hind bosh Arxivida to'planadi. Ammo joylardagi koloniyalarni boshqarish muassasalarini arxivlarida ham katta hajmdagi xujjatlar bo'lган. Xukumat muassasalarining arxivlari shaxarlarda, xokimiyat vakillari vitse qiroq va ularga bo'ysunuvchi alohida viloyat hokimlari general kapitan hamda gubernatorlarning hizmat joylarida to'plangan edi. Xajm jixatdan nisbatan ko'p va siyosiy jixatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan arxivlar vitse qirollarga tegishli bo'lib, ularga bevosita metropoliya xukumati bilan bog'langan edi.

XIX asr boshida Amerikadagi Ispan koloniyalari 4 ta vitse qirollikdan iborat edi: Yangi Ispaniya (Xozirgi Meksika xududi) Peru, Laplata (Argentina, Urugbay, Paragvay va Boliviya xududlari) hamda Yangi Gvineyada (Kolumbiya, Venetsuella, Ekvador va Panama hududlari). Portugaliya koloniyalari bitta vitse qirollikdan iborat bo'lgan. Vitse qirollikning asosiy shaxarlari- Mexiko, Buenos-Ayris, Lima, Bogota va Rio de Janeyro bo'lib, ularda eng yirik arxivlar jamlangan edi. Ma'muriyat va harbiy organlardan tashqari, arxiv materiallari moliyaviy muassasalar hamda sud organlari huzurida xam jamlangan. Koloniyalardagi iqtisodiy va madaniy rivojlanishning zaifligi, mahalliy o'z o'zini boshqarishning rivojlangan shakllarining mavjud emasligi, bu mamlakatlarda huddi Yevropada bo'lgani singari muhim arxivlar kategoriylarining rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Yevropa mamlakatlarida shaxar arxivlari, eski universitet arxivlari, banklar, savdo kompaniyalari arxivlari yaxshi rivojlangan edi. Shaxsiy arxivlar asosan mahalliy zamindorlarga ta'lluqli bo'lgan. Kolonial rejim inqirozidan keyin yuzaga kelgan Lotin Amerikasi mamlakatlarining har birida eski arxivlarning taqdiri turlichay kechdi. Yirik davlatlar avvalgi xukumatining eng muhim arxivlarini meros qilib

olishdi va bosh davlat Arxivlarini tuzishib, o'sha yerda me'rosiy xujjatlarni jamlashdi. Vaqt o'tishi bilan eski registraturalar yangi respublika muassasalari materiallari bilan birlashtirildi. Bu ikki tarkibiy qismlar – kolonial davrning tarixiy arxivi va yangi ma'muriyat arxivi (milliy yoki respublika arxivi) Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi davlat arxivlarining asosiy hususiyati hisoblanadi. Keyinchalik bu tarkibiy qismlar umumiy nom ostida "milliy arxivlar" deb atala boshlandi. Bu arxivlar Tashqi ishlar bo'yicha davlat sekretariatining idoralaridan biriga bo'ysunadi. Eng birinchi bo'lib Bosh Arxivga (Bosh Milliy Arxiv) deb keyinchalik atala boshlagan. Argentinaning Buenos Ayres shaxrida 1821 yilda asos solingan. Uning asosi sifatida La Plata vitse qirolligining arxivi hizmat qilgan. Bosh Arxivda shuningdek sud, moliya va munitsipial muassasalar arxivlari ham jamlangan. Keyinchalik u Argentina Respublikasining markaziy muassasalar materiallari uchun markaziy saqlash materiallari bo'lib hizmat qilishi lozim edi. Ammo bu maqsadga to'liq erishilmadi.

1823 yil Mexikoda Bosh arxiv, 1938 yilda esa Rio de Janeyroda Imperiya arxiviga asos solinadi. Boshqa mamlakatlarda kolonial davr muassasalarining xujjatlari tarixiy manba sifatida kutubxona va muzeylarga beriladi. Markaziy arxivlar mavjud materiallarni qadimgilari bilan ko'shilishi natijasida tarkib topadi. Xusan, 1868 yil Bogotada, 1870 yilda Limada Milliy arxivlar tashkil etildi. Kubada Milliy arxiv hali ispanlar xukumronligi davridayoq (1857 yil Gavana shaxrida) tashkil etilgan edi, ammo undagi qimmatli ma'lumotlar Ispaniyaga olib kelgingan va bosh Hind arxividan o'rinni oshirilmagan.

Janubiy va Markaziy Amerikaning boshqa davlatlarida arxivlarni bu kabi markazlashtirish birinchi Jaxon urushiga qadar amalga oshirilmagan.

Mahalliy kolonial ma'muriyat materiallari yomon sharoitlarda saqlangani sabab kata qisimiga zarar yetgan. Boshqa joylarda malakali ishchilarning yetishmasligi ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi arxivlar imtiyozli oqtanli aholi qo'lida bo'lganligi aniq. Markaziy arxivlar tashkil etilgach, uning materiallari mahalliy ziyyolilar tomonidan o'rganila boshladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. AQShda arxivlar qachon paydo bo'lgan va bunga nimalar sabab bo'lgan?
2. Tarixiy shart-sharoitlarning arxiv ishiga bo'lgan ta'sirini aniqlang.
3. AQShda arxiv ishining o'rta asrlar va yangi davrdagi tarixi qanday ikki davrga bo'linishi maqsalga muvofiq? Ushbu davrlardagi arxiv ishi to'g'risida ma'lumot bering.
4. AQSH arxivlari tasnifini keltiring. Har bir arxiv turini sharhlang.
5. Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi arxivlar faoliyati qanday tashkil etilgan?
6. XX asr boshlarida Amerikada arxivlar qanday tashkillashtirilgan?

### **Adabiyotlar:**

1. Карапетис И.В., Економический архивы Западной Европы и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.

2. Бржостовская Н.В. Архиви и арх. дело в зарубежных странах. М.: АСТ, 2012. 211 с.
3. Леонтиева О.Г. Архиви в современном мире. Учебное пособие. Тверь: Лиляя-Принт, 2014. 216 с.
4. Безбородова И.В. Теория и методика современного архивоведения в ССХА. М.: АСТ, 2010. 320 с.
5. Карапетянс И.В. Научно технический архиви в зарубежных странах. М., 2002. 1-2 част.

## 5 - mavzu: HOZIRGI ZAMON JAHON ARXIVLARI TAJRIBASI

### **PEЖA:**

- 5.1. Hozirgi zamон arxivlarida arxiv ishining tashkillashtirilishi. Fransiya arxivlari.
- 5.2. Malayziya davlat arxivi.
- 5.3. Xalqaro arxivlar kengashi.

**Tayanch iboralar:** hozirgi zamон, jahon arxivlari, zamонавиј arxivshunoslik, arxiv turlari, davlat arxivlari, arxivlarda ish yuritish, xalqaro arxiv tashkilotlari, tajriba, istiqbol, arxiv xodimlari.

Fransiyada 1930-2002 yillarda arxiv qonunchiligi tarixi. XIX asrda Fransiyada arxiv ishi borasida ikkita asosiy jarayon sodir bo‘ldi. Ular arxiv tarmoqlarini takomillashtirish va arxivshunoslikning yangi konsepsiysi, arxivlarning meyoriy-uslubiy faoliyati bazasi yaratildi.

1936-1938 yillarda davlat arxivlaridagi jamoatga tegishli hujjatlarni yo‘q qilishga oid va arxivlarni butlashga oid bir qator dekretlar qabul qilindi.

1940-1945 yillarda fransiyada arxiv ishini quyidagicha baholash mumkin. 1905-1907 yillarga tegishli ko‘pgina hujjatlar tadqiq etildi, 1917-1924 yillarda qabul qilingan hujjatlar borasidagi tartib qoidalarga amal qilindi.

Zamонавиј tarixshunoslikda global jaxon urushi (1914-1945 yillar), sovuq urush (1946-1991 yillar) uning davomi sifatida davom etdi. Birinchi bosqich urush juda ko‘p miqdordagi hujjatlarning yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchisi esa ta’sir etmadи.

1. Arxivlarda tarmoqlashtirishga oid tarixiy jarayonlar ikkinchi jahon urushi davrida sustlashdi deb bo‘lmaydi. Chunki 1945 yilda Fransiya arxivlarini boshqarish tarmoqlashuvining shakillanishi voqealari sabab bo‘ldi.

2. Audiovizual arxiv materiallari va ommaviy hujjatshunoslik masalalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi.

3. Kompyuter inqilobi birinchi bo‘lib ish yuritish masalalariga va hujjatshunoslik tartiblariga ta’sir etdi. Milliy arxiv raqamli hujjatlar muammolarini 1978 yilda o‘rgana boshlagan bo‘lsa 1983 yilda bu borada kea yutuqlarga erishdi. Birinchi raqamli hujjatalrni saqlash ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari Fransiyada arxiv ishini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin. Arxivlar borasida olib borilgan islohotlar qonunchiligi, ikkki guruhga bo‘linadi.

Birinchisi 1898 yil 12 yanvarda qabul qilingan dekretlarga asosan 5 yil

muddatga saqlash uchun topshirilib, ulardan erkin foydalanish mumkin edi. Oxir oqibat 1979 yil 3 yanvardagi arxivlar to‘g‘risidagi qonunning 7 moddasida “davlat xavfsizligiga xatar soluvchi, shaxsiy hujjatlar bo‘lsa ular topshirilgan sanasidan so‘ng 60 yildan so‘ng, ushbu hujjatlardan foydalanish uchun ruxsat beriladi” deyilgan edi. Ushbu hujjatlar mezoni Davlat Kengashi tomonidan tasdiqlangan. Ushbu qonunlar yuzasidan ko‘pgina cheklashlar o‘rnataligan.

Ikkinchidan hujjatlarning tarkibini tekshirishda yoki fondni boshqa joyga ko‘chirishda (albatta shaxslarning arizasiga ko‘ra yoki ma’muriy sud qaroriga ko‘ra) biror bir shaxsning shaxsiy hayotiga yoki davlat havfsizligiga zarar yetsa, ushbu arxiv hujjatlari muammolar keltirib chiqaradi. Aynan bu arxivlarni qiyosiy ma’noda “muammoli arxivlar” deb atash mumkin. Muammoli arxivlar albatta davlat tomonidan qattiq nazoratga olingan.

Bu turdagи arxivlar va qonunchilik normalari izlanuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Ulardan shaxsiy hayotga ta’sir o‘tkazish, jamoat va davlat arboblariga nisbatan taz’iqlar o‘tkazish va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin edi.

1991 yil “Veteranlar davlat qo‘mitasi” fondidan VOL-DE Fantene tomonidan ikkinchi jaxon urushiga tegishli yahudiylarni yo‘q qilinishiga oid hujjatlar chiqib qolgan. Hatto bu jarayonlarda fransuz hukumati ham ishtirok etganligi haqida ma’lumotlar bor deb jar solgan.

1994 yilda fransuz tarixchisi Sonya Komb “Taqiqlangan arxivlar” sarlavhasida maqola e’lon qilib, unda fransuzlaring yangi tarixini yaratishda nimalar to‘sinqilik qilmoqda degan g‘oyalar ilgari surilib, arxiv hujjatlaridan foydalanishda erkinliklar yaratilishi haqida aytib o‘tadi.

Shu ma’noda fransuz arxivi qonunchiligidan bir qator muammolar kelib chiqadi. 1996 yil Fransiya hukumati bosh vaziri Lionel Jospen o‘zi saylangan paytda iqtisodiy inqiroz bilan kurashayotgan bo‘lsada, 1979 yilgi arxiv qonunchiligi va hozirgi davr talabidan kelib chiqib, arxiv reformalarinin o‘tkazish ishlari ancha orqada qoldi. Uning o‘rniga arxivlardan foydalanishni ancha cheklab qo‘yish kabi takliflar kiritildi. 2001 yilda Fransiya Ijtimoiy-Iqtisodiy kengashida arxiv hujjatlarini saqlash uchun yangi markaz tashkil etish kerak deya fikr bildirgan. Bu fikrni o‘z vaqtida mamlakat prezidenti Jak Shirak ham ma’qullagan edi.

2000 yilda Jazoirda Fransiya hukumati istiqlolchilarni qattiq qiynoqlarga solgan degan ma’lumotlardan so‘ng hukumat o‘zinig oqlash maqsadida bir qator tarixchi arxichilarga murojaat qildi. Albatta hukumatning arxivchilarga murojaat qilishi quvonarli hol, XX asrda fransiyada arxivchilarga e’tibor kam qaratildi.

1991 yilgacha fransiyada umuman arxiv siyosati olib borilmaganinni ko‘rish mumkin. Ushbu muammo bir paytlar 1971 yilda paydo bo‘lgan edi. Chunki Milliy arxiv qoshida bir qator markazlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

1981 yil Fransiya arxivlari boshlig‘i etib madaniyat vazirligi xodimlari nomzodi qo‘yilgandan so‘ng arxivlargpa qiziqish pasaydi.

1990-1996 yillarda Fransiyada arxiv sohasi krizis holatida ekanligi aytib o‘tildi. Arxiv ishi islohatlarni talab etar, institutsion doiralarni mustaxkamlash, detsentralizatsiya (ya’ni Markaziy organlar vazifalarini mahalliy idoralarga berish)

ga qarshi chiqish masalalar ko‘tarildi. Shu bilan birga mamlakat bosh vaziri Allen Jyuppe Fransiya arxivi bosh keanii i lavozimini ham yo‘qotish kerakligini ta’kidlab o‘tgan.

1997 yilda bosh vazir etib Lionel Jospen saylangandan so‘ng, Fransiya arxiv ishida yangi davr boshlandi. 1997 yil 2 oktabrda Ikkinchiji jahon urushi materiallaridan erkin foydalanish haqida qaror qabul qilindi. Keyinchalik madaniyat vaziri Ketrin Tratman arxiv keanii i etib Filipp Belovani tayinladi. U ilgari Milliy kutubxona va Parij balleti keanii i lavozimlarida ishlagan edi.

F.Bellova lavozimiga ishga kirishgandan so‘ng, 3 oy o‘tib arxiv ishi borasida hisobot tayyorlab “Fransiyada eng dolzarb masala bu arxiv ishi” deb baho berdi. Bundan tashqari u arxiv ishini hayot zaruriyati ham deb atadi.

Ammo 1998 yil iyul, 2002 yil aprel oylarida madaniyat vaziri uning fikrini qo‘llab quvvatlamadi. Oradan ikki yil o‘tib F.Belova o‘zini lavozimidan ozod etishlarini so‘radi. Uning o‘rniga 2001 yilda Martin de Buasderf etib belgilandi. F.Belova tomonidan ilgari surilgan takliflar shundayligicha qoldi. Ammo arxiv ishi rivojlanishi tarafdorlari bu bilan tinchib qolishmadi, balki ommaviy nashriyotlarda bu haqda gapirib o‘tishdi.

Fransiya Ijtimoiy-Iqtisodiy Kengashi qoshida 2001 yilda “Fransuzlar va ularning arxivlari” nomli konferensiya yig‘ini tashkil etildi. Unda tashkilotchilar ko‘pgina siyosiy arboblarning qatnashishga ishontirdilar va erishdilar. Unda davlatninng bosh vaziri va madaniyat vazirining qatnashishi arxivchilarda kea umid uyg‘otdi. Ushbu yig‘inda 20 yildan buyon birinchi marta siyosiy arboblar tomonidan arxiv muammoalarini yechishda ishtirok etishi edi.

Fransiya bosh vaziri Lionel Jospen hukumatning arxivlarga bo‘lgan munosabati haqida gapirar ekan, “arxivlar – bu barcha fuqarolar mulkidir” va yana “Ushbu mol-mulk hukumatning zamonaviy va uzoq muddatli siyosatiga aylanadi” deb ta’kidlaydi. Shundan so‘ng u arxivlar borasida qilinadigan ishlar, loyihamar haqida to‘xtalib o‘tib, Axborot jamiyati haqida ham gapirib o‘tdi. Milliy arxiv qoshida yangi arxiv markazi tashkil etilib, uni boshqarish Milliy arxiv boshlig‘i zimmasiga yuklatildi. Tarixda birinchi marta arxiv tizimi bevosita bosh vazir tomonidan va hukumat boshlig‘i, ma’muriy organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim edi.

Shu jumladan mamlakatda idoralararo arxiv qo‘mitasi ham tashkil etish lozim edi, chunki u ko‘pgina masalalarni hal etishda ahmiyatga ega edi. Jumladan to‘plamlashtirish ishlarida (ya’ni siyosiy va vazirliklar arxivlariga aynan tegishli), keyingisi arxiv tizimini markaziy organlar vazifalarini mahalliy organlarga topshirish, muvofiqlashtirilgan arxiv siyosatining bo‘lmasligi ya’ni alohida hujjatlarga va boshqa maxsus hujjatlarga biror vazirlik yoki idora aralashmasligi lozim edi.

2002 yil 23 yanvarda bosh vazir ko‘rsatmasiga binoan qo‘mita tashkil etildi. Qo‘mita funksiyasiga arxiv hujjatlarini to‘plamlashtirish, saqlash, ulardan foydalanish, baholash kabi ishlarda qo‘mita davlat qarorini qabul qiladi deb ko‘rsatilgan edi.

Yangi markaz tashkil etilgandan so‘ng 2001 yil, 5 yanvardagi kabi “Jamiyatni

axborotlashtirish to‘g“risidagi” qonunni tasdiqlamagani kabi, 2002 yilda idoralararo yig‘ilishlarni tashkil etmaslik tarafdoi edi. Bundan tashqari Lionel jospen tomomnidan yangi zamonaviy hujjatlar markazi ish faoliyati ham arxivlar tizimidagina joriy qilishga ruxsat berildi. Lekin ushbu loyihani amalga oshirishda idoralararo qo‘mita 2002 yilning 4 apreligacha amalga oshirmadi. Bu masalani madaniyat vazirligi “arxivlar tizimining muhim yeschimi” deb “yopiq eshik” ortida hal etdi.

2002 yil 29 oktabrda madaniyat vazirining ko‘rsatmalari qabul qilindi, ammo unda arxivlar borasida hech qanday gap yo‘q edi.

Ikkinci tomondan hukumat arxivlar haqida o‘ylasada, faqatgina uni u yoki bu tashkilotga bo‘ysundirish haqida ko‘proq o‘ylar edi. Uni faqatgina Milliy arxiv sifatida saqlay oladigan ma’muriy yoki ilmiy institutga bo‘ysundirish lozim edi. Aynan fransiya arxivchilari hukumat vakillarga shunday tarzda – “ular barchasi ushbu arxiv krizisining oqibatini chuqur anglab yetishi kerak, u faqatgina milliy tarixiy merosga, tarixga, tarixiy bilimlarga, arxivlarga tegishli emas – balki u ilmiy tadqiqotning muhim asboboi va taraqqiyot garovidir”. Yana “arxiv krizisi bu – siyosat, davlat va demokratiya krizisidir” kabi fikrlar bilan murojaat qilishadi va

2002 yil 25 martda Fransiya madaniyat vazirligining “Fransiya arxivlarini qayta tashkil etish haqidagi” qarori qabul qilinishiga erishadilar.

2008 yil 9 iyulgi ma’lumotlarga ko‘ra Fransiya arxivlari boshqarmasi to‘gatilib uning o‘rniga Tarixiy va madaniy meros masalalari boshqarmasi tashkil etiladi. Lekin Fransiya arxivchilari hukumatning bu qaroriga rozi emaslar. Chunki arxivlar birinchi navbatda huquqiy va axborot resurssi hisoblanadi, keyin esa tarixiy material va madaniy meros hisoblanadi. Ularga faqatgina tarixiy meros sifatiad qarash kerak emas, arxivlarning roli va paydo bo‘lishgan joyi davlatning va uning organlari manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan.

1. Arxivlar ilmiy tadqiqotlar manbai hisoblanadi. Shuning uchun ularni boshqa manbalar bilan tenglashtirmaslik lozim.

2. Bu masalalarni hal etishda, minglab markaziy, hududiy arxivlar mavjud bo‘lgan fransuz arxiv tizimini modernizatsiya qilishda faqatgina davlat yordam berishi mumkin. Uni faqatgina arxiv tizimini rivojlantira ladigan oliy organ tarkibiga bo‘ydirish lozimdir

3. Fransiya arxiv ishi hozirgi kunda halqaro miqqiyosda 60 yil oldingi ahvoldidan ancha og‘ir bunga misol sifatida Yevropa Kengashidagi Xalqaro Arxiv Kengashining yuqori lavozimlarida fransuz axivchilarining yo‘qligidir.

Ushbu bildirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, Fransiya davlati axiv ishida juda tajribali, rivojlangan deb tan olingan bo‘lsada, mamlakatda arxiv ishi borasida ko‘pgina hal etilmagan mummolar mavjud.

Fransiyada 1979-2002 yillarda qonunchilik xronologiyasi

1. 1979 yil 3 yanvar “Fransiya arxivlari to‘g“risida” gi qonuni
2. 1979 yil 3 dekabr “Davlat arxiv hujjatlaridan foydalanish”, “Tarixiy va jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan xususiy hujjatlar saqlash haqida”, “Mudofaa vazirligi arxivi” to‘g“risida va boshqalar.
3. 1980 yil 1 dekabr “Tashqi ishlar vazirligi arxivini tartibga solish”

haqidagi dekreti

4. 1981 yil 12 may “Davlat havfsizligiga va Havfsizlik vazirligidagi maxfiy ma'lumotlar” haqidagi qonuni
5. 1983 yil “hududiy arxiv birlashmalari ustidan davlatning ilmiy –texnik nazorati” haqidagi bo‘yrug‘i
6. 1994 yil 8 aprel Davlat Kengashi tomonidan 1979 yili qabul qilingan arixvlar to‘g‘risidagi qonunga bir nechta o‘zgartirishlar kiritishi.
7. 1997 yil 2 sentabr Fransiya bosh vazirining 1940-1945 yilgi arxiv hujjatlaridan foydalanishga ruhsat berishi
8. 1999 yil 11 oktabr Ikkinchi jaxon urushi arxivlaridan maxfiylik tamg‘asining olinishi
9. 2001 yil yanvar Fransiya arxivi qoshida arxiv markazi tashkil etildi
10. 2001 yil 13 aprel fransiya respublikasi bosh vazirining Jazoirdagi urush arxiv hujjatlaridan foydaanish uchun ruxsat berilishi
11. 2001 yil 5 noyabr Ijtimoiy-Iqtisodiy kengash qoshida “Fransuzlar va ularning arxivlar” konferetsiya bo‘lib o‘tdi. Unda maalakat bosh vaziri ishtirok etdi.
12. 2002 yil 21 yanvarda Madaniyat vaziri va yangi oliy arxiv kengashi tomonidan 5 ta eksport komissiyasi tashkil etildi.
13. 2002 yil 23 martda bosh vazir tomonidan “Arixv ishlari bo‘yicha idoralararo qo‘mita” si tuzildi
14. 2002 yil 25 martda Fransiya Madaniyat vazirligining “Fransiya arxivlarini qayta tashkil etish haqidagi qarori”

XXI asrda fransuz arxiv ishi halqaro aloqalari

Albatta yuqorida aytib o‘tildiki 1821 yil Xartiyalar mакtabida arxivchi mutaxassislar tayyorlagan. Maxsus o‘quv kurslari, dasturlar asosida amalga oshirgan. Shu bilan birgan o‘scha davrning o‘zidayoq Belgiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlardan arxivchilar kelib malka oshirib ketishgan.

2009 yil 11 fevralda Fransiya va Vyetnam davlatlari o‘rtasida parijda arxiv ishi borasida shartnomma tuzdi. Unda Vyetnam Hujjatshunoslik va arxiv ishlari boshqarmasi keanii i VU Txi Min Xuong va Fransiya arxivlari bosh

keanii i Martin de Buasdefrlar qatnashdi. Ikki tomon kelishuviga muvofiq ma'lumotlar, ekspertlar va dokumentlar almashinuvi, hujjatlarni boshqarish borasida tajriba almashish borasida kelishuvlar tuzdi.

Fransiya tashqi ishlar vazirligi arxiv hujjatlari juda ko‘p miqdorni tashkil etadi. Hujjatlar yig‘majildlar qutilar koridorlargacha chiqib ketgan. Arxivchilar bu narsaga anchadan beri bu muammo haqida bosh qotirishmoqda. 2000 yilda ushbu muammo yuzasidan hukumat tomonidan boshqa bino qurib bitkazish mo‘ljallandi. Vazirlik arxivi direktorining gapiga qaraganda arxivning kattaligi 820 m<sup>2</sup> unda bir vaqtning o‘zida 160 ta ilmiy tadqiqotchi faoliyat olib borishi mumkin.

Shu bilan birga Fransiya arxiv ishida faqatgina Yevropa va Osiyo davlatlaridan tashqari Janubiy Amerika davlatlari bilan ham bilan aloqalar o‘rnatlagan. Fransiya arxiv ishi Milliy keanii i a Argentina umummilliy ommaviy axborot markazio‘rtasida 2008 yil 12 mayda shartnomma tuzilgan. Unga ko‘ra Argentina televideniyasi arxivini mutaxassis sifatida fransuz arxivchilari qayta

ishlash ishlarini olib boradilar. Arxivda 220 ming soatlik efir vaqt, 70 ming soat jonli efir soatlari kadrlari majud. Argentina hukumati bu ishga 4 million Aqsh dollari ajratgan. Fransiya Arxiv Instituti keanii i Emmanuel Xoog “Biz dunyoda audiovizual yodgorliklarni saqlash borasida eng yetakchi o‘rindamiz” Fransiyada arxiv ishi Milliy instituti 3 million soat efir vaqt (ularning yarmi videomaterial), yana 800 ming soat qayta ishlash uchun navbatda turibdi, arxivlar faqtgina madaniy emas balki iqtisodiy qiymatga ham ega deb ma’lumot bergen. Shu ma’lumotga asosan Argentina hukumati qog‘ozli hujjatlar arxivlari borasida ham hamkorlik qilish niyatida ekanligini aytib o‘tgan.

2007 yil may oyidan boshlab, fransuz va koreys mutaxassislari Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Chosun qiroli dinastiyasiga tegishli elektronlashtirilgan hujjatlarni tarjima ishlarini olib bormoqdalar.

1866 yildan Fransiya Milliy kutubxonasida koreys manuskriplarining 297 tomini saqlab kelmoqda. Ular fransuz harbiylari tomonidan qo‘lga kiritilgan. Ushbu kolleksiyaning bir tomi 1993 yil sentabr oyida Koreya prezidenti Mitteranga taqdim etilgan edi.

2002 yil Rossiya Davlat Gumanitar universiteti rektori Y.N. Afanasevning Fransiyaga tashrif buyurdi. Tashrif chog‘ida Fransiya arxivlari direksiyasi va Xartiya Milliy maktabi o‘rtasida shartnama imzolandi. Shartnama Rossiya-Fransiya hamkorligida rejalshtirilgan “Xalqaro va fransuz arxivshunosligi” va “Halqaro informatsion huquqlar” 5 yillik dasturi amalga oshirilgan. Dastur 2002-2003 o‘quv yildidan amalga joriy qilingan.

Tarix-arxivshunoslik intitutiga fransuz mutuxasislari “Fransiya arxiv huquqi”, “Arxiv sohasida xalqaro hamkorlikni shakillantirish”, “Fransiya arxivshunosligi amaliyoti”, “Arxivlarni saqlash va ulardan foydalanish” kabi kurslardan ma’ruzalar o‘qishgan.

Umuman olganda fransuz arxiv ishi tajribasidan dunyoning ko‘pgina yetakchi davlatlari tajriba o‘rgangan. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi arxiv tizimida ham malakali arxivchilarni Fransuz arxiv mifiktabida malaka oshirish mamlakatda arxiv ishini yanada rivojlantirish omillaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**MALAYZIYA DAVLAT ARXIVI.** Malaziya janubiy-sharqiy Osiyodagi davlat bo‘lib, hududini janubiy tomonidan Xitoy dengizi ikkiga ajratib turadi G‘arbiy MalaziY. (Malayn) Malakka yarim orolining janubida Sharqiy Malaziya Kalimanta orolining shimoliy qismida joylashgan. Hududi 332.8 ming km. Poytaxti Kuala-Lumpur shahri. Ma’muriy jihatdan 13 shtat va 2 ta federal hududga bo‘linadi.

Malayziyaning davlat tuzumi – federativ davlat konstitusiyali monarxiya davlat hisoblanadi. Amaldagi konstitusiyasi 1963 yilda qabul qilingan, unda Malaziya federatsiyaining 1957 yilgi konstitusiyasi asos qilib olingan va keyin-chalik tuzatishlar kiritilgan. Davlat boshlig‘i – oliv hukmdor (podshoh. 2001 y. Sulton Tuanku Sash Sirojiddin Sayd Nutra Jamolul-layl). U 9 ta malayya shtat sultonlari kengashida yashirin ovoz berish yuli bilan 5 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchni organi 2 palatali parlament. Ijroiya hokimiyatini bosh vazir boshchiligidagi vazirlar mahkamasi amalga oshiradn.

15 asrlarda va 16 asr boshlarida Malakka yarim oroli Riau arxipelagi pa

Sumatra oroli sharqiy qismi Malakka sulton ko‘l ostiga II birlashtirilgan. 1511 Portugaliya bosib oldi Malaziya hududining g‘arbiy qismi bir necha sultonliklardan tashkil topgan. 10—18 asrlardan butun Malayya hokimiyati birlashtirishga harakat qilindi. 18 asr oxiridan Malayya davlatiga ingliz mustamlakachilar tasir ko‘rsata boshladi va 1886-1888 yillar davomida inglizlar Malaziya hududuni kea qismini bo‘sib oldi.

2 jahon urushi davrida Malayziyani Yaponiya bosib oldi. 1943 yilda Malaziyada bosqinchilarga qarshi xalq armiyasi tuzildi. 1945 yil 2 sentabrda mamlakat ozod qilindi. 1946 va 1948 yili Konstitusiya islohotlariga ko‘ra Singapur Malaziyadan ajratildi. Malaziya (1946 plan Malayya Ittifoqi va 1947 yil Malayya Federatsiyasi deb: 1946 yilda Saravak va Sabax Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. 1948 yil iyunda ingliz hokimiyati milliy ozodlik harakatiga qarshi xujumga o‘tdi. 1949 Ozodlik armiyasi tuzildi. 1955 yil Malayya Federatsiyasining qonun chiqaruvchi kengashida davlat mustaqilligini yoqlab chiqdi. 1957 yil 31 avgustda Malayya Federatsiyasi mustaqilligi e’lon qilindi 1963 yil 9 iyunda Londonda Malayya Federatsiyasi, Singapur, Sabax va Saravak o‘rtasida Malayziya Federatsiyasi tashkil topganligi to‘g‘risida o‘zaro bitim imzolandi.

Hozirgi kunda Malayziya milliy arxivi parlament binosi yaqinida joylashgan. Malayziya arxiv qonunlariga ko‘ra hujjat paydo bo‘lgandan so‘ng jamoatchilik kengashi qaroriga ko‘ra 25 yildan keyin foydalanishga ruxsat beriladi. Arxiv hujjatlaridan foydalanish uchun ruxsat olishda tavsiya hujjatlarini taqdim etishi lozim hisoblanadi (Masalan, ba’zida Malaziya hukumatidan ham hujjatlar kerak bo‘lishi mumkin).

Malayziya 1957 yil 31 avgustda Mustaqil davlat sifatida e’lon qilindi. Shu yilning 1 dekabrida Davlat arxiv tashkil etildi. 1963 yilda uning nomi Malayziya Milliy arxiv sifatida almashtirildi. 1966 yilda Milliy arxiv to‘g‘risida qonun qabul qilinib, Qirol sanksiyasi berildi. Shu yili Petaling-Djaya shahrida yangi arxiv binosi ochildi. 1971 yilda Milliy arxiv qoshida Milliy kutubxona tashkil etildi. 1977 yilda ular alohida—alohida etib tashkil etildi. 1982 yilda Djalan-Duta shahrida Milliy arxivning hozirgi binosi tashkil etildi. 1987 yildan esa milliy arxiv boshqaruv faoliyatini tizimi Madaniyat, san’at va turizm Vazirligi tasarrufiga kiritildi.

Malaziya Milliy arxivni Bosh direktorini Malayziya Madaniyat, san’at va turizm Vaziri tomonidan tayinlanadi. Milliy arxiv boshqaruv tizimi esa Boshqarma, hisobot xizmati (hisobtlarni yig‘ish bo‘limi), arxiv xizmati, hujjatlarni qidirib keanii nashr etish, saqlovxonalar va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘limlaridan iborat.

Milliy arxivning joylarda sakkizta bo‘limlari mavjud. Ular: 1.Djaxor/Malakka (Djaxor-Baruda), 2. Kedax /Perlis (Alop Setarda), 3.Sabax (Kota-Kinabalu), 4. Kelantan (Kota –Baru), 5.Saravak (Kuchingda), 6.Pulau-pinang (Djordjtaun), 7. Perak (Ipoxda) va 8. Terengganu /Paxang (Kuala –Terengganu) lardan iborat.

Milliy arxiv o‘qishxonasida bir vaqtning o‘zida 120 ta odam hujjatlardan foydalanishi mumkin. Arxivda kutubxona, o‘qish zali, mikrofilmerni ko‘rish xonasi, nusxa olish va boshqa texnik ishlarni amalga oshirish xonasi, audio vizual

xonalari mavjud bo‘lib, shu bilan bir qatorda ko‘rgazmalar va yodgorliklar namoyishi ham tashkil etilgan. Bundan tashqari Malaziya Milliy arxivi Yuneskoning Dunyo yodgorliklari mukofoti bilan mukofotlangan.

**Xalqaro arxivlar kengashi (XAK) faoliyati.** 1948 yil 9 iyun kuni Parij shahrida bir gurux arxiv mutaxassislari tomonidan “Xalqaro arxivlar kengashi” tuzildi va uning raisi etib Charlz Samaran tayinlandi. Bu kengashning 1-yig‘ilishi 21 avgust 1950 yil Parijda o‘tkazildi. Sekin asta kengash faoliyati rivojlana boshladи.

Hozirda Xalqaro arxivlar kengashining butun dunyo bo‘ylab bo‘limlari mavjud. Bular quyidagilardir:

ALA – Lotin Amerika hududiy bo‘limi. ALAg 1973 yil 6 aprelda Peruning Lima shahrida asos solingan. ALA XAK tarkibiga hududiy bo‘lim sifatida 1976 yilda qo‘shilgan. ALA Ispaniyaning Madrid shahrida 1982 yil qabul qilingan Lotin Amerikasi arxivni Konstitusiyasi rahbarligida faoliyat yuritadi. ALA XAK maqsadlarini qo’llab-quvvatlash va Ispaniya, Portugaliya hamda ispan portugal tillarida so‘zlashuvchi Lotin Amerikasi davlatlari kooperatsiyasini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. ALA o‘ziga a’zo davlat hududlarida XAK rejalariga va o‘z faoliyatiga mas’ul hisoblanadi.

ARBICA – arab hududiy bo‘limi. ARBICA 1985 yil Sevillada qabul qilingan XAKning arab hududiy bo‘limi Konstitusiyasi raxbarligida ish yuritadi. ARBICA XAK maqsadlarini qo’llab quvvatlash va Arab davlatlarida kooperatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

CARBICA – Karib hududiy bo‘limi. 1975 yilda bu bo‘lim tashkil etilgan. Karib arxivlashtirish assotsiatsiyasi Konstitusiyasi rahbarligida faoliyat yuritadi.

CENARBICA – Markaziy Afrika hududiy bo‘limi. 1982 yil 24 sentabrda Bangviyada qabul qilingan qonunlar asosida ish yuritadi.

EASIICA – G‘arbiy Osiyo hududiy bo‘limi. Bo‘lim 1993 yil Bindjingda bo‘lib o‘tgan Konferensiyada qabul qilingan o‘z Konstitusiyasi bo‘yicha ish yuritadi.

ESARBICA – G‘arbiy-Janubiy Afrika hududiy bo‘limi.

EURASICA – Yevroosiyo hududiy bo‘limi. Bo‘lim 2000 yil Moskvada konferensiyada qabul qilingan Konstitusiyasi bo‘yicha ish ko‘radi. YEVRASIZKA bo‘limining uchta guruhi mavjud: “A” guruhiga davatlarning arxiv ishi bo‘yicha xizmatlari (organlari), “B” guruhiga yirik arxiv muassasalari va institutlar, “S” guruhga faxriy a’zolar ovoz berish orqali kiritiladi. “B” va “S” guruhida a’zolik badallari ko‘zda tutilmagan.

EURBICA – Yevropa hududiy bo‘limi. XAKning Yevropa hududiy bo‘limi Konstitusisiga ko‘ra ish olib boradi.

NAANICA – Janubiy Amerika hududiy bo‘limi.

PARBICA – Tinch okeanii hududiy bo‘limi.

SARBICA – Janubiy-G‘arbiy Osiyo hududiy bo‘limi.

SWARBICA – Janubiy-Sharqiy Osiyo hududiy bo‘limi.

WARBICA – Sharqiy Afrika hududiy bo‘limi.

XAK bo‘limlari o‘z kasbiy qiziqishi yoki ish faoliyatiga ko‘ra turlicha bo‘lib, ular XAK maqsadlarini qo’llab-quvvatlash va o‘z hududlarida kooperatsiyani

kuchaytirishga xizmat qiladi. XAK bo‘limlari o‘z bo‘limlarida guruxlar ham tuzishlari mumkin. Bo‘limlarning a’zoligi XAK kotibiyati tomonidan boshqariladi.

**O‘zbekiston Respublikasining arxiv sohasida xalqaro aloqalari.** 2009 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi Xalqaro arxivlar kengashining (XAK) “A” toifasiga a’zo bo‘ldi. Joriy yilning oktabr oyida Armanistonning Yerevan shahrida tashkil etilgan Xalqaro arxivlar kengashining YevroOsiyo hududiy bo‘linmasinining 10 – Umumiylar konferensiyasi bo‘lib o‘tib, bu tadbirda “O‘zarxiv” agentligi vakili ham ishtirok etdi. Tadbirlarda arxiv ishi yo‘nalishi bo‘yicha yangi uslublar va yangiliklar hamda hujjatlar saqlovini ta’minalash, umrini uzaytirish bo‘yicha bugungi kundagi muammolar, shu o‘rinda ularni bartaraf qilish yo‘llari to‘g‘risida suhbatlar uyushtirildi. Ushbu anjumanda O‘zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivlarning axborotlashtirish sohasidagi tajriba yuzasidan chiqish qilindi.

Xalqaro arxivlar kengashining a’zolari o‘z hududidagi bo‘linmaga a’zo bo‘lib kiradilar. O‘zbekiston Respublikasi arxivlar xizmati YevroOsiyo hududiy bo‘linmasiga a’zo bo‘lib kirdi.

“A” toifasi milliy/hududiy arxiv boshqarmalari va arxivchilar milliy uyushmasi hisoblanadi hamda unga a’zolar ovoz berish huquqiga ega.

Xalqaro arxivlar kengashi YevroOsiyo hududiy bo‘linmasining maqsad va vazifalari:

1. Hududdagi milliy arxivlar xizmatlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, qo‘llab quvvatlash va rivojlantirish, shuningdek arxiv hujjatlarni saqlash band bo‘lgan boshqa barcha tashkilot va idoralar bilan aloqalarni o‘rnatish;
2. Hududlardagi arxiv hujjatlarni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni qo‘llab quvvatlash va saqlash metodlarini takomillashtirishni boshqarish;
3. Hududlardagi arxivlarga keng yo‘l ochish, ulardagi fondlar haqida axborot tayyorlash va arxiv hujjatlaridan foydalanishni rag‘batlantirish;
4. Hududlardagi arxivlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish;
5. Hududlardagi arxivchilarni mutaxassis darajasida tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish;
6. Ilmiy konferensiylar, seminarlar, sipoziumlar va boshqa alohida mavzuda uchrashuvlar tashkil qilish.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Hozirgi zamон arxivlarining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Elektron arxivlar haqida so‘zlab bering.
3. Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida arxivlar faoliyati qanday tashkillashtirilgan?
4. Zamonaviy arxivlar to‘g‘risida ma’lum misol keltirib axborot bering.
5. Xalqaro arxiv tashkilotlari to‘g‘risida ma’lumot bering.

### **Adabiyotlar:**

1. Карапетянс И.В. Економический архивы Западной Европы и ССХА (до начала XX в.) М.1997.

2.Оъзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 21 августдаги ПҚ-949 “Корея республикаси хукуматининг грант маблағларини жалб етган ҳолда ОъзР МДАларини реконструксия қилиш ҳамда уларни техник модернизациялаш чора тадбирлари тоъғрисида”ти қарори.

3. Раззаков А.А. Государственная архивная служба ССХА. - Тарихий манбашунослик муаммолари. Т.2008.

4. Волкова Т.С. Правовой режим хранения и использования президентской документации в ССХА // Отечественный архиви. М., 2005, № 2.

5. Плате А. Стратегия ЮНЕСКО в отношении развития архивного дела. // Вестник архивиста. –М., 1995. № 6 (30).

6. Прозорова В.Б. Государственная школа национального достояния. Франции-итоги первого десятилетия//Отечественный архиви. М.: 2003, № 2.

1. [хтпп: // магазинес.русс.ру /нло/2005/74/ду21.хтмл](http://magazinес.русс.ру/нло/2005/74/ду21.хтмл)

Ассоциацион дес арчивис тесфранзаиштпп: // www.archivistes.org /ИМГ/пдф/Соммуникуе\_-\_-л\_ААФ\_ет\_ла\_РГПП\_-\_-09жуил08.пдф.

2. [хтпп: // www.vnageny.com.](http://www.vnageny.com/) вн/ Внанетви/ФР/ табид /145/итемид/282956/Дефаулт.асpx Виетнам Hew Агенсий /ВОВ Hewc.

## IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR

### **1-mavzu. Jahonda arxivlarning paydo bo‘lishining tarixiy shart-sharoitlari va ularning evolyusiyasi**

**Ishdan maqsad.** Mavzuni o‘rganish ma mustahkamlash borasida turli hujjatlarni saqlash zarurati, hujjat saqlaydigan muassasalarning jahonda hududiy o‘ziga xos xususiyatlari va ularga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi, taqqoslanadi. Hujjatlar turlari tasnifi bajariladi.

#### **Ishning bajarish tartibi:**

1. Qadimgi Old Osiyo, Qadimgi Yunoniston, Rim mamlakatlarida qadimgi davrda kechgan tarixiy jarayonlarga doir xronologik jadval tuzish.
2. Turli mamlakatlardagi tarixiy shart-sharoitlarni solishtirish.
3. Yaqin Sharq, Qadimgi Gretsiya, Rim davlatlarida o‘rtalarda sodir bo‘lgan muhim voqealar haqida qisqacha bayon qilish (guruhlarda bajarish mumkin).

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Old Osiyoning mashhur arxivlari haqida ma’lumot bering.
2. Qadimgi Yunoniston arxivlari tanisifni tushuntirib bering.
3. Qadimgi Misrda arxiv ishi qanday yo‘lga qo‘yilgan?
4. Qadimgi Rimda arxivlar turlari bo‘yicha qanday farqlangan?
5. O‘rtalarda arxiv ishi evolyusiyasi nimada kuzatiladi?
6. Yevropada qirollik arxivlari faoliyatini yoritib bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бржостовская Н.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах (История и современная организация). М., 1971. 220 с.
2. Карапетис И.В. Економический архиви Западной Йевропи и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
3. Мадковский И.Л. Архиви и архивойе дело в рабовладелческих государствах древности и в епоху феодализма. М., 1959.
4. Самоквасов Д.Й. Архивнойе дело на Западе. М., 1900.
5. Старостин ЙЕ.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах. Свердловск: Воскресеніе, 2010. 482 с.

## **2-mavzu. So‘nggi o‘rta asrlar hamda yangi davrda Yevropada arxivlar faoliyati**

**Ishdan maqsad.** XVI-XVIII asrlarda G‘arbiy Yevropa hamda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida arxivlar taraqqiyoti yoritib beriladi. XIX asrda Yevropada arxiv sohasida o‘tkazilgan islohotlar va ularning arxiv ishiga bo‘lgan ta’siri aniq faktlar asosida tahlil qilinadi.

### **Ishning bajarish tartibi:**

1. So‘nggi o‘rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida mavjud arxivlar tasnifiga doir jadval tuziladi.
2. Sharqiy Yevropada so‘nggi o‘rta asrlarda arxiv ishiga doir testlar tuziladi.
3. Yangi davrda arxiv sohasida o‘tkazilgan islohotlarning Yevropa mamlakatlariga bo‘lgan ta’sirini yorituvchi jadval to‘ldiriladi.
4. Yevropa va Osiyo arxivlari faoliyatining taqqoslanma tahlili bajariladi (“3x4” guruhlarda ishlash texnikasini qo‘llash mumkin).

### **Nazorat savollari:**

1. XIX asrda Fransiya ishida arxiv ishi borasida davlat siyosati qanday bo‘lgan?
2. Yangi davrda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida arxiv muassasalari faoliyatida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
3. Birinchi jahon urushidan so‘ng arxivlar tarixida o‘zgarishlar yuz berdimi?
4. Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda Yevropada arxivlar va arxiv ishi qanday yo‘lga qo‘yildi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Карапетис И.В. Економический архиви Западной Европы и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
2. Бржостовская Н.В. Архивы и арх. дело в зарубежных странах. М.: ACT, 2012. 211 с.
3. Клейе-Мишо Р. Архивное дело во Франции. – М.: РИПОЛ, 2011. 101 с.
4. Алексеева ЙЕ.В., Афанасьева Л.П., Бурова ЙЕ.М. // под редакцией профессор Козлова В.П., Архивоведение. – М.: ПрофОбрИздат, 2002.
5. Калсина ЙЕ.А. Французской архивоведение: история, теория, методология (конец XIX века - XX век). М.: РГТУ, 2014. 26 с.

### **3-mavzu. Arxiv muassasalarining Rossiya hududida paydo bo‘lishi va rivojlanishi**

**Ishdan maqsad.** O‘rta asrlarda Rossiya o‘lkasida arxivlarning paydo bo‘lishi, ularning turlari va hujjatlari xususida ma’lumotlar beriladi. So‘nggi o‘rta asrlar hamda yangi davrda Rossiyada arxishunoslik sohasida yuz bergan tarixiy jarayonlar yoritib beriladi.

#### **Ishning bajarish tartibi:**

1. Rossiya arxivlari tarixi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar o‘rganiladi.
2. O‘rta asrlar va so‘nggi o‘rta asrlarda Rossiya arxiv muassasalarining materiallari, arxiv xujjatlari turlari xususida testlar tuziladi.
3. Yangi davrda Rossiyada arxiv ishi sohasida olib borilgan islohotlar va ularning natijalari bo‘yicha jadval to‘ldiriladi.
4. Rossiyada sodir bo‘layotgan tarixiy jarayonlarning arxivlar va arxiv muassasalariga bo‘lgan ta’siri xususida fikr-mulohazalar yuritiladi, natijalar bo‘yicha blits-so‘rov o‘tkaziladi (“bumerang” texnikasini qo‘llash mumkin).

#### **Nazorat savollari:**

1. Rus davlatida arxivlar qachon va qanday omillar ta’sirida paydo bo‘lgan?
2. Rusda ilk arxiv muassasalarida qanday hujjatlar saqlangan, ular qaysi materiallardan tayyorlangan?
3. Rossiyada feodal tuzumi arxivlar faoliyatiga qanday ta’sir qilgan?
4. XVIII asrda Rossiya arxiv ishi sohasida qaday islohotlar o‘tkazilgan?
5. XIX asr davrida Rossiyada arxivlar faoliyati va arxiv ishining yo‘lga qo‘yilishi tartibi xususida so‘zlab bering.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Алексеева Й.Е.В., Афанасьева Л.П., Бурова Й.Е.М.// под редакцией профессор Козлова В.П., Архивоведение. - М.: Профобриздат, 2004.
2. Козлов В.П. Российской архивной дела. Архивно-источниковедческие исследования - М.: ТЕРМИКА, 2004.
3. Очерки по истории архивного дела в СССР ,ч.1,2 изд., М, 1960
4. [www.archive.ru](http://www.archive.ru)

## **4-mavzu. AQShdagi tarixiy jarayonlarning arxiv ishiga bo‘lgan ta’siri**

**Ishdan maqsad.** AQShda arxivlarning paydo bo‘lishi va so‘nggi o‘rta asrlardagi taraqqiyoti tahlil etiladi. Yangi davrda AQSH arxiv ishi evolyusiyasi aniq misollarda ko‘rsatib beriladi.

### **Ishning bajarish tartibi:**

1. AQShda arxivlarning paydo bo‘lishiga doir tarixiy shart-sharoitlar tahlili bajariladi, aniq misollar keltiriladi.
2. Industrial davrdan oldingi bosqichda AQSH arxivlari tasnifi bo‘yicha jadval tuziladi, misollar keltiriladi.
3. Industrial iqtisodiy davrda AQSH arxivlari turlari va faoliyatida yuz bergen o‘zgarishlar xususida bayon yoziladi.
4. AQSH arxivlari tarixi bo‘yicha testlar tuziladi (juftliklarda ishlash mumkin).

### **Nazorat savollari:**

1. AQShda arxiv muassasalarining paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlang va ularni tarixiy nuqtai nazardan talil qiling.
2. XVI-XVII asrlarda AQShda qanday arxiv turlari faoliyat yuritgan?
3. XVIII-XIX asrlarda AQSH arxivlari tasnifini va ular bo‘yicha misollarda keltiring.
4. AQShda XX asr boshlarida arxiv ishini tashkillashtirishda qanday muhim jarayonlar kechdi?

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Карапетянс И.В. Економический архиви Западной Европы и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
2. Бржостовская Н.В. Архиви и арх. дело в зарубежных странах. М.: ACT, 2012. 211 с.
3. Леонтьева О.Г. Архиви в современном мире. Учебное пособие. Тверь: Лилия-Принт, 2014. 216 с.
4. Безбородова И.В. Теория и методика современного архивоведения в ССХА. М.: ACT, 2010. 320 с.
5. Карапетянс И.В. Научно технический архиви в зарубежных странах. М., 2002. 1-2 част.

## **5-mavzu. Dunyodagi zamonaviy arxivlar faoliyati**

**Ishdan maqsad.** XX-XXI asr boshlarida dunyoda arxivlar faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar xususida mulohazalar bildiriladi. Mavzu yuzasidan qiyosiy tahlillar bajariladi. Hozirgi zamon arxivlari faoliyati to‘g‘risida qo‘srimcha ma’lumotlar keltiriladi. Arxiv ishining dunyoda integratsiyalashuvi jarayoni tahlil etiladi.

### **Ishning bajarish tartibi:**

1. XX asrda jahonda eng mashhur bo‘lgan arxivlar faoliyatiga doir dokladlar tayyorlanadi va o‘qib eshittiriladi.
2. XXI asr boshlarida dunyoda arxiv ishining tashkil qilinishida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar borasida munozara o‘tkaziladi.
3. Hozirgi zamon arxivlari faoliyati to‘g‘risida qo‘srimcha ma’lumotlar asosida solishtirma jadvallar to‘ldiriladi.
4. Xalqaro arxiv tashkilotlari to‘g‘risida blits-so‘rov o‘tkaziladi.
5. Zamonaviy arxivlar va arxivlarda ish yuritilishi tartiblari to‘g‘risida prezentatsiyalar tayyorlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Fransiyada zamonaviy arxivlar faoliyati qanday tashkillashtirilgan?
2. Germaniyada arxiv ishi sohasining hozirgi davrdagi taraqqiyotini yoritib bering.
3. Xitoyda arxiv ishi qanday rivojlanmoqda?
4. Malayziyada zamonaviy arxivlar faoliyati xususida ma’lumot bering.
5. Xalqaro arxivlar kengashi qanday tashkilot?
6. O‘zbekiston Respublikasining arxiv sohasida olib borayotgan tashqi siyosatiga baho bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Карапетянс И.В. Економический архиви Западной Йевропи и ССХА (до начала XX в.). М.1997.
- 3.Оъзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 21 августдаги ПК-949 “Корея республикаси ҳукуматининг грант маблағларини жалб етган ҳолда ОъзР МДАларини реконструкция қилиш ҳамда уларни техник модернизациялаш чора тадбирлари тоъғрисида”ги қарори.
4. Прозорова В.Б. Государственная школа национального достояния. Франсии-итоги первого десятилетия//Отечественное архивы. М.: 2003, № 2.

## V. KEYSALAR BANKI

Jahon arxivlari tarixi va tajribasi kursi bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarning hozirga qadar to'liq holda ishlab chiqilmagani, fan murrakab bo'lganligi tufaylimi, o'qituvchi talabchan bo'lganligi tufaylimi talabalarning o'zlashtirilishi yuqori emas edi. Unga fanni yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga kiritishni tavsiya etishdi.

- *Talabalar o'zlashtirishni oshirish uchun nima qilmog'i kerak?*
- *Siz o'qituvchi o'rnila bo'lganiningizda nima qilar edingiz?*
- *Ma'muriyatni o'rnila bo'lganiningizda nima kilgan bo'lar edingiz?*
- *Talaba o'rnila bo'lganiningizda o'zlashtirishni oshirish uchun nima qilgan bo'lar edingiz?*



Yaqin Sharq mamlakatlarida arxivlar va arxiv ishi tarixi bo'yicha qadimgi va o'rta asrlar davriga doir ma'lumotlar juda kam. Mazkur mavzuni to'g'ri yoritish uchun manba, adabiyotlar yoki boshqa usullardan foydalanish ma'lum bir samarani beradi.

*Bu borada fikringiz qanday, qaysi manba, adabiyot va usullardan foydalanish mumkin bo'ladi?*



Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik fanining boshqa tarixiy hamda maxsus tarixiy fanlar bilan bog'liq tomonlari bor. Bularni inobatga olib mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va samaraliroq tashkillashtirish mumkin.

- *Bu qanday tarixiy va maxsus fanlar?*
- *Ulardan qanday foydalanish mumkin?*
- *Xulosalariningizni jadvalga yozing.*



Jahon arxivlari va zamonaviy arxivshunoslik fani bo'yicha dars o'tish jarayoni nafaqat o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga, balki boshqa omillarga ham bog'liq.

*Dars o'tishda o'qituvchig bog'liq tomonlarini va "boshqa" omillarni ko'rsatib bering. O'zlashtirish jarayonini oshirish uchun tavsiyalarni ishlab chiqing.*



Arxivshunoslik sohasida nazariy mashg'ulotlar bilan birga amaliy darslar va amaliyotlar ham olib boriladi.

*Darsdan tashqari vaqtida ushbu soxa bo'yicha talabalarda amaliy malakalarni oshirish uchun mumkin bo'lgan tavsiyalarni ishlab chiqing.*



Jahon arxivlar tarixi va azmonaviy arxivshunoslik sohasida arxivlarning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, ularning hududiy va xronologik o'ziga xos jihatlari, arxivlarni tasniflash, arxiv turlarining rivojlanishi, arxivlarda ish yuritishning tashkillashtirilishi, arxivlar evolyusiyasi, arxiv ishi taraqqiyoti, arxiv sohasidagi xalqaro hamkorlik, arxilarni zamonaviylashtirish, elektron arxivlarning afzalliklari va kamchiliklari, modernizatsiya va globallashuv davrida arxiv ishida tajribalar almashinuvining roli, hozirgi dunyoning mashhur arxivlari, arxivlarning umumiyligi va davrlar bo'yicha rivojlanishi yo'nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan respublikamiz hamda rivojlangan xorijiy davlatlar olimlari *ruyxatini jadvalda tuzing*

<i>Nº</i>	<i>F.I.SH.</i>	<i>Davlati</i>	<i>Ilmiy yo'nalishi</i>
1.			
2.			
3.			

## VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

### **Mustaqil ta'lif mavzulari**

1. Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik fanini talabalarga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan an'anaviy uslub va usullardan foydalanish samarasi.
2. Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik fanini o'qitish borasida so'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
3. Jahon arxivlari tarixi fanida qo'llaniladigan qo'rgazma materiallarning turlari va ulardan foydalanish qoidalari.
4. Qadimgi dunyoda arxivlarning paydo bo'lishi va ularning turkumlari.
5. Ilk o'rta asrlarda jahon arxivlarining faoliyati.
6. O'rta asrlarda arxivlar muassasalarining tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari.
7. So'nggi o'rta asrlar davrida arxivlar evolyusiyasi.
8. Yangi davrda arxiv ishi sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning arxiv ishiga bo'lgan ta'siri.
9. XX asrda jahon arxivlari faoliyati va tajribasi.
10. Hozirgi zamon arxivlarida arxiv ishining tashkillashtirilishi. Arxiv menejmenti.
11. Elektron arxivlar.
12. XXI asrda arxiv ishining taraqqiy etishi.
13. Xalqaro arxiv tashkilotlari.
14. Hozirgi davrda jahonda arxiv ishining integratsiyalashuvi.
15. Arxiv ishining rivojlanishida Internet tarmog'ining roli.
16. Jahon arxivlari tarixi va tajribasi bo'yicha krossvord, keys vazifalari turlari.
17. Jahon arxivlari tarixiga oid xorijiy adabiyotga taqriz yozib, afzal tomonlarni va kamchiliklarni ko'rsatib bering.

## VII. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilida	Ingliz tilida
<b>Arxivlash jarayoni</b> ARCHIVAL PROCESS	arxiv jamg‘armalari va hujjatlaridan foydalanish imkonini beruvchi, arxivlarda amalga oshiriluvchi tadbirlar majmuyi bo‘lib, bularga quyidagilar kiradi: hujjatlarga ega bo‘lish, ularni baholash, tasniflash, joylashtirish, saqlash, ulardan foydalanish tartiblarini belgilash va saqlash ishlarini boshqarish. Hujjatlarga ishlov berish tushunchasi, asosan, ularning qimmatligini aniqlash, joylashtirish, sharhlash va saqlash sharoitlarini yaratib berishni anglatadi.	the set of activities carried out by an archives to provide access to archival fonds and records. Activities are: acquisition appraisal, accessioning, arrangement, description, preservation management and access. The term processing generally pertains to appraisal, arrangement, description and preventive conservation.
<b>Arxiv qiymati</b> ARCHIVAL VALUE	bu arxiv materiallarin saqlash zaruratini oqlab beruvchi ularga berilgan bahosi, qiymati.	a value which justifies the preservation of archival materials.
<b>Arxiv</b> ARCHIVE/S	jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan va ma’lum qiymatga ega bo‘lgan uning hujjatlari, ayni vaqtda ular “arxiv fondi” deb ham yuritiladi.  Arxiv hujjatlari saqlanadigan bino ham “arxiv hujjatlari saqlov xonalari” deyiladi.  Arxiv sohasida faoliyat yurituvchi inson arxivchi deb ataladi.	the non-current records of a person(s), organization or corporate body preserved because of their enduring value; also referred to as “archival holdings”. The building, or part thereof, where archival records are housed; also referred to as “archival repository”. Archives profession - person practicing this profession is known as an archivist.
<b>Depozit</b> DEPOSIT	arxiv hujjatlarini saqlash xonalariga ma’lum hujjat yoki boshqa materiallarni, ularga	to transfer records or other materials to a repository without transfer of title. Same as loan.

	egalik huquqini saqlab qolgan holda, vaqtinchalik topshirish.	
<b>Sharhash DESCRIPTION</b>	arxiv materiallari haqidagi ularning tarkibi, funksiyalari va mazmunini yoritib beruvchi, standartlarga to‘g‘ri keladigan, yozuvlar.	the recording of information in a standardized form about the structure, function and content of archival materials.
<b>Indeks INDEX</b>	materiallar to‘g‘risidagi axborotni o‘zgacha bir tartibda tashkillashtirilgan sahifalar ro‘yxati. Odatda, indeks fakat o‘ziga tegishli bo‘lgan joy, obyekt haqida ma’lumotlarni taqdim etib, boshqa axbortga ega bo‘lmaydi.	an ordered list of headings that points to relevant information in materials that are organized in a different order. Generally, an index provides no explanation about the information it points to beyond its location.
<b>Axborotlilik INFORMATIO NAL VALUE</b>	hujjatdagi yozuvlarning tadqiqot maqsadlari uchun noyob va doimiy hisoblangan ma’nosidir.	The value of a record that provides unique and permanent information for purposes of research.
<b>Muqarrar qiymatlilik INTRINSIC VALUE</b>	elementning foydaliligi yoki ahamiyatliligi, uning tashqi sifatidan kelib chiqadi va ichki mazmuni bilan bog‘liq emas.	the usefulness or significance of an item derived from its physical or associational qualities, inherent in its original form and generally independent of its content, that are integral to its material nature and would be lost in reproduction.
<b>Kredit LOAN</b>	bir tomonidan materiallarni boshqa tarafga vaktpnchalik topshirilishi.	the temporary transfer of materials from one party to another.
<b>Joylashuv registri LOCATION REGISTER</b>	– arxiv materiallarining joylashuvi, saqlanish joyi to‘g‘risidagi ichki yozuv hujjatlari. Shuningdek, joylashuv ro‘yxati ham deyiladi.	an internal finding aid that records the storage location of archival materials. Also known as a location index or location list.
<b>Asosiy sarlavha MAIN ENTRY</b>	hujjatni topishdagi asosiy belgi, odatda asarning intellektual yoki badiiy mazmuni, umuman, ishning, hujjatning mazmunini aksa	the heading used as the principal access point. The main entry is usually the name of the individual chiefly responsible for the intellectual or artistic content of a

	etadi.	work, a corporate entity, or the title of the work.
<b>Og‘zaki tarix ORAL HISTORY</b>	shaxs haqidagi ma’lumotlarga ega intervY. O‘tmish va tarixiy voqealar haqidagi esdaliklar. Shunday intervyu va ma’lumotlar yozib olingan audio-, videoyozuvlar stenogramma va boshqa materiallar.	an interview that records an individual's personal recollections of the past and historical events. The audio or video recordings, transcripts and other materials that capture and are associated with such an interview.
<b>Original tartib ORIGINAL ORDER</b>	jamg‘arma ichidagi hujjatlarni joylashtirish tartibi qoyidasi bo‘lib, u jamg‘amrani yig‘gan shaxs tomonidan kiritilgan bo‘ladi.	the principle that an archivist retains the arrangement within a fonds as established by its creator.
<b>Axborot PERSONAL INFORMATION</b>	shaxs to‘g‘risidagi ma’lumot bo‘lib, biroq unga shaxsning ismi, lavozimi, manzili yoki telefoni haqidagi ma’lumot kiritilmaydi.	information about an identifiable individual but [that] does not include the name, title or business address or telephone number of an employee of an organization.
<b>Fotosurat PHOTOGRAPH</b>	yorug‘likka ta’sirchan bo‘lgan tekislik ustida optik tizim hamda fotokimyoviy jarayon yordamida hosil qilingan siljimas tasvir.	a still picture formed on a light-sensitive surface using an optical system and fixed by a photochemical process b.
<b>Siyosat POLICY</b>	ma’lum harakatlar uchun asosiy yo‘l-yo‘riqlar bo‘lib, mazkur faoliyat amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chegaralarni belgilaydi.	a basic guide to action that describes the boundaries within which activities are to take place.
<b>Saqlash PRESERVATION</b>	materiallarni, ulardagi madaniy qimmatga ega bo‘lgan ma’lumotni imkon qadar uzoqroq vaqtga asrab qolish maqsadida, kimyoviy va jismoniy ta’sirlardan himoya qilish.	the professional discipline of protecting materials by minimizing chemical and physical deterioration and damage to minimize the loss of information and to extend the life of cultural property.
<b>Audiovizual jarayonlar AUDIOVISUAL</b>	ma’lum tovush va tasvirlarni ro‘yobga chiqaradigan avtomatik, mexanik	works that consist of a series of related images that are intrinsically intended to be shown

RECORDS	moslamalar bilan o‘zaro bog‘langan tizimli bosqichlarda ishlash.	by the use of machines or devices, together with accompanying sounds, if any.
<b>Jamlash COLLECTION</b>	turli mazmun, yo‘nalish, turdagи hujjatlarni sun’iy ravishda yig‘ib, to‘plab borish va bunda ma’lum bir jihatni asos qilib tanlash zarur bo‘ladi (masalan, predmet, mavzu, yoki ommaviy axborot vositalari).	an artificial accumulation of documents of any provenance, brought together on the basis of some common characteristic (eg. subject, theme, or media), that may be described as a unit under a common title.
<b>Mualliflik huquqi COPYRIGHT</b>	hujjatning egasi, yoni egasining vorislariga ushbu hujjatni nashr etish yoki boshqa tarzda ro‘yobga chiqarish uchun beriladigan yuridik huquq.	legal rights of the author of a document and his/her heirs or assignee to publish or reproduce the document or to authorize publication or reproduction of it.
<b>Korporativ organ CORPORATE BODY</b>	ma’lum bir umumiyl vazifalarni bajaruvchi, birgalikda vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar guruhi.	group of persons regarded collectively especially as having a corporate function.

## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy:

1. Бржостовская Н.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах (История и современная организация). М., 1971. 220 с.
2. Карапетянс И.В. Економическийе архиви Западной Йевропи и ССХА до начала XX века. М., 1997. 230 с.
3. Бржостовская Н.В. Архиви и арх. дело в зарубежных странах. М.: АСТ, 2012. 211 с.
4. Старостин ЙЕ.В. Архиви и архивнойе дело в зарубежных странах. Свердловск: Воскресеніе, 2010. 482 с.
5. Клейе-Мишио Р. Архивнойе дело во Франсии. – М.:РИПОЛ, 2011. 101 с.
6. О.В. Вовкотруб, Л.Р.Фионова. Архивоведенийе. Учебнойе пособийе. Пенза, 2005. 132 с.

### Qo'shimcha:

1. 1. Леонтиева О.Г. Архиви в современном мире. Учебнойе пособийе. Твер: Лиляя-Принт, 2014. 216 с.
2. 2. Безбородова И.В. Теория и методика современного архивоведения в ССХА. М.: АСТ, 2010. 320 с.
3. 3. Карапетянс И.В. Научно техническийе архиви в зарубежных странах. М., 2002. 1-2 част.
4. 4. Калсина ЙЕ.А. Франсузскойе архивоведенийе: история, теория, методология (конец XIX века - XX век). М.:РГТУ, 2014. 26 с.
5. 5. Кабочкина, Т.С. Акулиничева С.Д. Координация архивной деятельности в ССХА в послевоенний период / Т.С.Кабочкина, С.Д.Акулиничева. – М.: АГРАФ, 2011. 153 с.
6. 6. Алексеїева ЙЕ.В., Афанасїєва Л.П., Бурова ЙЕ.М. // под редакси профессор Козлова В.П., Архивоведенийе. – М.: ПрофОбрИЗдат, 2002.
7. 7. Бржовстовская Н.В. Архивнойе дело в странах Йевропи и Америки в период капитализма Т-1-2. 1957.
8. 8. Кенкю Дзёсе-Су, Бунсё Мейдзи, Дайдзёкан. Предели источниковедения периода киндай — Введение в исследованийе документов высшего исполнительного органа Дайдзёкан в период Мейдзи. Токио. 2000. 312 с.
9. 9. Валберг Х. Електроннийе документи в архивах (на примере Германии) // Отечественийе архиви 2004, №1
10. 10. Историческая енциклопедия Т-1-17. – Т., 1976
11. 11. Максакова В.А. Архивнойе дело в первийе годы в совецкой власти. – М., 1959.
12. 12. Маяковский И. Очерки по истории архивного дела. СХ. 1-2. – М., 1960.
13. 13. Исторический архив», «Вестник архивиста», «Отечественнийе архиви» журналлари.

14. Tarixiy manbashunoslik muammolari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Т., 2008.
15. 15. Антонова К. А., Бонгард-Левин Г. М., Котовский Г. Г. История Индии. М.: Мисл, 1985. 558 с.
16. 16. Постановление от 22 декабря 1992 г. № 1006 «Об утверждении положения о государственной архивной службе России».
17. 17. Чернов А.В. История и организация архивного дела. – М., 1950.
18. O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi qonuni. 2010 yil, 15 iyun.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 avgustdagи PQ-949 “Koreya respublikasi hukumatining grant mablag‘larini jalb etgan holda O‘zR MDAlarini rekonstruksiya qilish hamda ularni texnik modernizatsiyalash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 26 avgustidagi “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 194-sonli qarori.

#### **Elektron resurslar:**

21. [www.ziyonet.net](http://www.ziyonet.net)
22. [www.history.ru](http://www.history.ru)
23. [www.arshiv.ru](http://www.arshiv.ru)
24. Arxivlarning umumiylarini va hozirgi zamondagi jahon yetakchi arxivlari. O‘quv-uslubiy majmua. – Т., 2011. O‘zMU ARM.